

B. B. Mo`minov, X. U. Xayatov

PASKAL TILIDA
DASTURLASH
amaliy va laboratoriya
ishlari to`plami
(metodik qo'llanma)



Buxoro – 2007 y

Mazkur metodik qo'llanma oliy ta'lim muassasalari va dasturlashni o'rzanuvchilar uchun mo'ljallangan. Metodik qo'llanma oliy ta'limning amaliy matematika va informatika yo'nalishi uchun maxsus fan sifatida tanlangan «Paskal tilida dasturlash» fani o'quv dasturi asosida tuzilgan. Unda turbo paskal amaliy dastur imkoniyatlari, unda ishslashning zaruriy va yetarli ma'lumotlari keltirilgan. Shuningdek, nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash uchun amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga mo'ljallangan topshiriqlar, laboratoriya mashg'uloti uchun variant topshiriqlari keltirilgan.

Ushbu metodik qo'llanma faqat amaliy matematika va informatika yo'nalish talabalari uchun emas, balki kasb–hunar kollejlari talabalari, keng kitobxonlar ommasiga, jumladan, maktab o'quvchilari, o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari, ilmiy xodimlarga ham mo'ljallangan.

Muallif:

B. B. Mo'minov – BuxDU

Amaliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi.

X. U. Xayatov – BuxDU

Amaliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi.

Mas'ul muharrir:

A. G'. Hayitov – BuxDU


Amaliy matematika va ax–borot texnologiyalari kafedrasi mudiri, p. f. d., dots.

Taqrizchilar:

J. Jumaev – BuxDU Amaliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti.

Sh. Yo'ldoshev – BuxOO va ESTI axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri, dotsent.

Mazkur qo'llanma BuxDU Amaliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasining 2007 yil «5» noyabrdagi majlisi va fizika – matematika fakulteti 2007 yil «26» dekabrdagi ilmiy kengashida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etildi.



MUNDARIJA

<u>1–Mashg’ulot.</u> Paskal tilida matematik ifoda va o’zgaruvchilarni tavsiflash ...	4
<u>2–Mashg’ulot.</u> Asosiy, maxsus va elementar funksiyalar.....	11
<u>3–Mashg’ulot.</u> Shartsiz va shartli o’tish, variant operatorlari.....	17
<u>4–Mashg’ulot.</u> Qaytarilish jarayonlarini dasturlash.	
Parametrli qaytarilish jarayoni	23
<u>5–Mashg’ulot.</u> O’zgaruvchilarning satriy tiplari.....	31
<u>6–Mashg’ulot.</u> O’zgaruvchilarning massiv ko’rinishi.....	37
<u>7–Mashg’ulot.</u> Qism dasturlar va ularning turlari. Prosedura–funksiyalar.	
Prosedura – dasturlar	43
<u>8–Mashg’ulot.</u> Paskalning grafik imkoniyati.	
Tasvirli matnlar bilan ishlash	54
<u>9–Mashg’ulot.</u> Paskalda matnli fayllar bilan ishlash.....	63
1 – Laboratoriya ishi	67
2 – Laboratoriya ishi	69
3 – Laboratoriya ishi	73
4 – Laboratoriya ishi	79
5 – Laboratoriya ishi	82
6 – Laboratoriya ishi	84
7 – Laboratoriya ishi	87
8 – Laboratoriya ishi	92
9 – Laboratoriya ishi	96

1–Mashg’ulot
Paskal tilida matematik ifoda va o’zgaruvchilarni tavsiflash.
(2 soat)

Maqsad:

Paskal tilining alfaviti, dastur tuzilishi va o’zgaruvchilarni tavsiflashni, matematik ifodalarni Paskal tilida ifodalashni o’rganish, foydalanish va ushbu amallarni bajarish bo’yich ko’nikma hosil qilish.

Reja:

1. Matematik ifodani Paskal tilida yozish.
2. Paskal tilining alfaviti, dastur tuzilishi va o’zgaruvchilarni tavsiflash.

Matematik ifodani Paskal tilida yozish.

Maqsad:

Matematik ifodalarni Paskal tilida ifodalashni o’rganish va ushbu amallarni bajarish bo’yicha ko’nikma hosil qilish.

Nazariy material:

Quyida keltirilgan 1.1 – jadval yordamida ixtiyoriy matemetik ifodani Paskal tilida yozish mumkin.

	Matematik ifoda	Paskal tilida yozilishi
1.	$A+b$	$a+b$
2.	$a-b$	$a-b$
3.	ab	$a \cdot b$
4.	$\frac{a}{b}$	a/b
5.	$ a $	$ABS(a)$
6.	$\sin(x)$	$\sin(x)$
7.	$\cos(x)$	$\cos(x)$
8.	$\operatorname{tg}(x)$	$\tan(x)$
9.	$\operatorname{ctg}(x)$	$\operatorname{ctan}(x)$
10.	x^2	$SQR(x)$
11.	x^3	$SQR(x) \cdot x, \exp(3 \cdot \ln(x))$
12.	x^y	$\exp(y \cdot \ln(x))$
13.	e^x	$\exp(x)$
14.	a^x	$\exp(x \cdot \ln(a))$
15.	$\ln(x)$	$\ln(x)$
16.	\sqrt{x}	$SQRT(x)$
17.	$\sqrt[4]{x}$	$\exp((1/4) \cdot \ln(x))$
18.	$\sqrt[n]{x}$	$\exp((n) \cdot \ln(x))$

1.1–Jadval.

Topshiriqlar:

1. $-0.08x + 73xy^2 + 27xy^2$ ni Paskal tilida yozing.
2. $(-2x^2 + xy^2) + 7x^2y$ ni Paskal tilida yozing.
3. $(4a^2 - 2ab + b^2)$ ni Paskal tilida yozing.
4. e^{x-6} ni Paskal tilida yozing.

5. $e^{a^2b} - \frac{1}{5}a^2b^2c$ ni Paskal tilida yozing.
6. $\ln(x) + \ln(a)$ ni Paskal tilida yozing.
7. $\frac{a^8(b^4)^4}{a\frac{1}{b^3} - (ab)^2}$ ni Paskal tilida yozing.
8. $\left(-\frac{7}{15}a^3b^2c^3\right) \cdot \left(\frac{9}{14}ab^2c\right)$ ni Paskal tilida yozing.
9. $\frac{1}{18} \cdot x \cdot (-0.9) \cdot y^2$ ni Paskal tilida yozing.
10. $e^{ba^2} - \sin(\pi x + a)$ ni Paskal tilida yozing.
11. $\sin^2(x) + \cos^2(x)$ ni Paskal tilida yozing.
12. $\frac{1}{4 \cdot \cos\left(\frac{\alpha}{2}\right) \cdot \cos\left(\frac{\beta}{2}\right) \cdot \cos\left(\frac{\lambda}{2}\right)}$ ni Paskal tilida yozing.
13. $7x^2b^2(4b - 3x)$ ni Paskal tilida yozing.
14. $(m+n)a + (n+m)b$ ni Paskal tilida yozing.
15. $\frac{1}{3} \cdot y \cdot (-0.002) \cdot y^5$ ni Paskal tilida yozing.
16. $\left(0.6ca + \frac{2}{5}bc\right) - \left(\frac{9}{2}ab - \frac{1}{8}cb\right) + 2(a+b)$ ni Paskal tilida yozing.
17. $\ln(x) + \ln(y) - a + 1$ ni Paskal tilida yozing.
18. $\frac{a^8(b^4)^8}{a\frac{c}{b^3} - (abc)^4}$ ni Paskal tilida yozing.
19. $1001x^2c^2(2b + 6x)$ ni Paskal tilida yozing.
20. $\frac{p}{2 \cdot \left(\frac{\alpha}{2}\right) \cdot \sin\left(\frac{\beta}{2}\right) \cdot \cos\left(\frac{\lambda}{2}\right)}$ ni Paskal tilida yozing.
21. $\sqrt[4]{\cos(x)}$ ni Paskal tilida yozing.
22. $e^{x+\cos(x)} + \sqrt{\pi}$ ni Paskal tilida yozing.
23. $\sqrt{\left(e^{x^2+\cos(x)}\right)^7}$ ni Paskal tilida yozing.
24. $b\sqrt[2]{\frac{p}{2 \cdot \left(\frac{\alpha}{2}\right) \cdot \sin\left(\frac{\beta}{2}\right) \cdot \cos\left(\frac{\lambda}{2}\right)}}$ ni Paskal tilida yozing.
25. $\sqrt[4]{\cos(x) + \tan(x)}$ ni Paskal tilida yozing.

Topshiriqni bajarish namunasi:

Topshiriq: $\frac{1001x^2}{y} + \sqrt{c^2(2b + 6x)}$ ni Paskal tilida yozing.

Matematik ifodani Paskal tilida yozish uchun: 1) Matematik ifodadagi amallar aniqlanadi: kvadrat, bo'lish, kvadrat ildiz, ko'paytirish va qo'shish amallari mavjud. Bu amallarning yozilish 1.1 – jadvalga quyidagicha keltirilgan.

	Matematik ifoda	Paskal tilida yozilishi
1.	$A+b$	$a+b$
2.	ab	$a \cdot b$
3.	$\frac{a}{b}$	a/b
4.	x^2	$SQR(x)$
5.	\sqrt{x}	$SQRT(x)$

1.2–Jadval.

1.2–Jadval dan foydalanib, ifoda quyidagicha yoziladi.

$$((1001 \cdot SQR(x))/y) + SQRT(SQR(s) \cdot ((2 \cdot 6) + (6 \cdot x)))$$

Paskal tilining alfaviti, dastur tuzilishi va o'zgaruvchilarni tavsiflash.

Maqsad:

Paskal tilining alfaviti, dastur tuzilishi va o'zgaruvchilarni tavsiflashni o'rghanish, foydalanish va ushbu amallarni bajarish bo'yicha ko'nikma hosil qilish.

Nazariy material:

Tanlab olingan masalani algoritm asosida kompyuterda yechimini olish uchun har qanday algoritmik tilning o'z alfaviti, buyruqlar majmuasi va maxsus dasturlar jamlangan kutubxonasi, yordamchi dasturlar (protseduralar), yordam sistemasi bo'lishi shart. Turbo paskal tili alfaviti uch qismga bo'linadi

– lotin alfavitining katta va kichik harflari va bo'sh ('space' tugmasi) joyni aniqlovchi belgi.

Lotin alfaviti

A a	F f	K k	P p	U u	Z z
B B	G g	L l	Q q	V v	
C c	H h	M m	R r	W w	
D d	I i	N n	S s	X x	
E e	J j	O o	T t	Y y	

– 0 dan 9 gacha bo'lgan arab raqamlari. (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9)

– Maxsus belgilari.

Maxsus belgilari ham o'z navbatida uch turga bo'linadi:

1) + (qo'shish), – (ayirish), • (ko'paytirish), / (bo'lish) arifmetik amallari.

2) Solishtirish amallari.

3) Tinish yoki ajratish belgilari:

Belgi	nomi	belgi	nomi
()	Qavs	{ }	Qavs
;	Nuqta vergul	[]	KV Qavs
:	Ikki nuqta	,	Vergul
.	Nuqta	“ ”	Qo’shtir–noq
(• •)	Izoh	..	Diapason
^	Tilda belgisi	@	Tijorat a
Paskal belgisi	Matematik ko’rinishi	Ma’nosi	
=	=	Teng	
<>	≠	Teng emas	
>	>	Katta	
<	<	Kichik	
>=	≥	Katta yoki teng	
<=	≤	Kichik yoki teng	

Foydalanuvchi tomonidan bajarilishi lozim bo’lgan ma'lum harakatni elektron hisoblash mashinalariga maxsus so’zlardan tashkil topgan operatorlar yordamida yetkazilib, amalga oshirilishi mumkin. Demak, kompyuter uchun operator bajarilishi so’zsiz shart bo’lgan buyruqdir. Operatorlar algoritmik tillarda asosiy tushuncha bo’lib, o’z navbatida ikki guruhga bo’linadi: oddiy va murakkab operatorlar.

Oddiy operatorlar jumlasiga Begin, End, Const, Label kiritilishi mumkin.

Murakkab operatorlar bir necha oddiy operatorlarni o’z ichiga olishi mumkin. Turbo paskal dasturlash tili yoqori sathli dasturlash tillariga kirishini inobatga olgan holda quyidagi jadvalni keltiramiz.

	So’z	U’zbek tilidagi ma’nosi	№	So’z	U’zbek tilidagi ma’nosi
1	Begin	Boshlash	2	End	Tamom
3	Real	Haqiqiy son	4	Integer	Butun son
5	Write	Yozmoq	6	Read	O’qimoq
7	For	Uchun	8	Go	O’tish....
9	To	..gacha	10	Then	Agar
11	Else	Aks holda	12	Add	Qo’shish
13	Or	Yoki	14	and	Va
15	Const	O’zgarmas	16	label	Belgi

Ma'lumki, har qanday qiymat yoki belgi bilan ish ko'rish uchun eng avvalo ularga xotiradan joy ajratish zarur bo'ladi. Buning uchun ishlatalishi zarur bo'lgan o'zgaruvchi yoki o'zgarmaslar Paskal tilida e'lon qilinishi kerak. Ko'pchilik hollarda dasturlarda o'zgarmas qiymatlar bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi. Masalan, n=20, e=2,71 kabi sonlar Paskal tilida quyidagicha e'lon qilinadi:

Const pi=3.14; n=20; e=2.71;

Umumiy holda o'zgaruvchilar var (variable) operatori orqali qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatiga qarab turlarga bo'linadi. Butun sonlar ishlatalish chegarasiga qarab har xil ko'rinishda e'lon qilinishi mumkin:

- ⊕ **Byte** – 0 dan 255 gacha qiymat qabul qiluvchi ishorasiz butun son;
- ⊕ **Shortint** – -128 dan 127gacha qiymat qabul qiluvchi ishorali butun son;
- ⊕ **Word** – 0 dan 65535 gacha qiymat qabul qiluvchi ishorasiz butun son;
- ⊕ **Integer** – -32768 dan 32767 gacha qiymat qabul qiluvchi ishorali butun son;
- ⊕ **longint** – -2147483648 dan 2147483647 gacha qiymat qabul qiluvchi ishorali uzun butun son.

Haqiqiy sonlar uchun qo'yilgan masalada yechimning aniqlik darajasiga qarab quyidagi operatorlar yordamida identifikatorlar e'lon qilinishi mumkin:

Identifikator	Qiymatlarni oral ig'i	Aniqlilik darjasasi	Egallagan hajmi
real	2.9s -39,...,1.7e38	11–12	6 bayt
single	1.5e -45,...,3.4e38	7–8	4 bayt
double	5.0e~324,...,1.7e308	15–16	8 bayt
extended	3,4e-4932,...,1.1e4932	19–20	10 bayt

Faqat **rost** – **true** yoki **yolg'on** – **false** qiymatlarni qabul qiluvchi mantiqiy o'zgaruvchilar **Boolean** operatori yordamida e'lon qilinadi. Har qanday identifikatorlarni ASCII jadvalidagi kodlari bilan ish ko'rib, belgilarning o'zлari ustida tegishli amallar bajarish uchun o'zgaruvchilarni belgili tipi operator **char** yordamida aniqlanadi. Foydalanuvchining dasturida i,j,k–butun; x,y,z–haqiqiy; u,v, w–mantiqiy qiymatlarni qabul qilib; a,b,c–belgili o'zgaruvchilar turiga kirsin. Bu o'zgaruvchilar Paskal tilida quyidagicha e'lon qilinadi:

```
Var
  i ,j ,k: integer;
  x ,y ,z: real;
  u ,v ,w: boolean;
  a ,b ,c: char;
```

Xuddi shu taxlitda o'zgaruvchilarni boshqa murakkab va mustaqil ravishda aniqlanuvchi ko'rinishlarini e'lon qilinishi mumkin. Paskal tilida tuzilayotgan har qanday dastur ma'lum qonuniyatlarga asoslangan bo'ladi va bu tildagi eng kichik dastur quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

```
Begin
  end.
```

Bu dastur hech qanday vazifa bajarmaydi, lekin kompyuter uchun bu narsaning ahamiyati yo'q, eng muhim dasturning boshlanishi va tugashini aniqlovchi

operatorlar berilgan. Demak, bu operatorlar orasida foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan vazifalarni bajaruvchi boshqa har qanday operatorlarni joylashtirish mumkin:

Begin

Dasturning asosiy qismi

End.

Kompyuterda biror masalani yechish uchun boshqa dasturlarga, tashqi qurilmalarga murojaat qilish mumkin, o'zgarmas yoki yangi o'zgaruvchilarning ko'rinishlarini e'lon qilish mumkin. Bu amallar hamma vaqt asosiy dasturdan oldin e'lon qilinadi. Shunday qilib Paskal tilidagi dastur tuzilishi quyidagi ko'rinishga ega:

Uses

Ishlatilayotgan kutubxona bo'limlari
(modullari).

Label

Dasturning asosiy qismida
ishlatilayotgan belgi (metka)larni e'lon
qilish.

Const

O'zgarmaslarni e'lon qilish.

Type

Yangi o'zgaruvchilarning turini
muomalaga kiritish.

Var

Asosiy dasturda muomalada bo'lgan
o'zgaruvchilarni e'lon qilish.
PROSEDURALARni e'lon qilish.

Begin

Dasturning asosiy qismi.

End.

Demak, har qanday dastur yuqorida berilgan asosiy tuzilmaning xususiy holi bo'lishi mumkin va ular o'z navbatida Paskal tiliga xos bo'lgan asosiy tushunchalar asosida hosil qilinadi. Masalan, quyidagi dasturni tahlil qilsak ma'lum bo'ladi.

Var

a,b:byte;

Begin

Write(a+b);

End.

Topshiriqlar:

Nº	O'zgaruvchilar tipini aniqlang.
1.	a:=5; b:=3.25: c:= false; d:=-5; e:=-56150215.1231;
2.	a:=12.5; b:=30.025: c:= true; d:=-500000000000.0; e:=-561.12;
3.	a:=5214; b:=4301.205: c:= false; d:=-45.454; e:=-5.45;
4.	a:=145.5; b:=125; c:= true; d:=1515151515151515; e:=-215.31;
5.	a:=502.0; b:=0.325: c:= false; d:=-50200.0220; e:=-1;

6.	a:=50.50; b:=13.025; c:= false; d:=-5; e:=-5;
7.	a:=00.125; b:=300120025; c:= true; d:=-0.500000000000000; e:=-666561.12;
8.	a:=5214; b:=4301.205; c:= false; d:=-45.454; e:=-5.45;
9.	a:=145.5; b:=125; c:= true; d:=10.01•126; e:=-215.31;
10.	a:=25; b:=0.325; c:= false; d:=-50; e:=-56.1502151231;
11.	a:=125; b:=30025.02315; c:= true; d:=-1024; e:=pi•25;
12.	a:=52-56.3; b:=43-01.205; c:= false; d:=-45•454; e:=-5/45;
13.	a:=145+5; b:=125•4563; c:= true; d:=0.2•exp; e:=-215.31;
14.	a:=cos(pi); b:=325-5; c:= false; d:=-50200+0220; e:=-1•sin(67);
15.	a:=sqr(5050); b:=5!: c:= false; d:=2.6-5; e:=-5•pi;
16.	a:=ln(5); b:=300.0120025; c:= true; d:=-0.5•45682137; e:=-66-656112;
17.	a:=52/14; b:=43•205; c:= false; d:=ln(1346)+454; e:=1346548643268-5.45;
18.	a:=14•5.5; b:=12/5; c:= true; d:=15/15; e:=-215•31;
19.	a:=5•10!; b:=3!+(1+2+3); c:= false; d:=-5•50+12.36; e:=-5+1/5.1231;
20.	a:=1/2.5; b:=30•25; c:= true; d:=-50-0.0000000002; e:=-5•61.12;
21.	a:=125•cos(0); b:=sin(12)+30.02; c:= true; d:=-10•24; e:=pi-25;
22.	a:=52-506.3; b:=43•01.205; c:= false; d:=-45+454; e:=-5-45;
23.	a:=145•cos(5); b:=125•tg(4563); c:= true; d:=0.2•exp(2); e:=sqrt(6)-215.31;
24.	a:=cos(sqrt(pi)); b:=ln(325)-5; c:= false; d:=-50200•220; e:=-pi•sin(2153);
25.	a:=sqr(5050)+25; b:=5!/3!: c:= false; d:=2.6•5; e:=-5-pi;
26.	a:=ln(5)+253; b:=30.120025; c:= true; d:=-0.5/456; e:=-66/656•112;
27.	a:=52/14; b:=43•205; c:= false; d:=ln(1346)+45-4; e:=134-654•86/26-5.45;
28.	a:=0.25•5.5; b:=12134512342452/5; c:= true; d:=15/0.5; e:=-2•31;
29.	a:=5•0!; b:=3!+(1•2•3); c:= false; d:=-5•50+12.3/6; e:=-5+1/5.12/31;
30.	a:=10•2.5; b:=30•25; c:= true; d:=-50-0.020; e:=-50•61+12;

Topshiriqni bajarish namunasi:

Topshiriq: a:=1•2.5; b:=3•2: c:= true; d:=-50-0.020; e:=-50•61+12;
 a ning tipi haqiqiy (single) {butun sonni haqiqiy songa ko'patmasi haqiqiy bo'ladi.}
 b ning tipi butun (byte) {butun sonni butun songa ko'patmasi butun bo'ladi.}
 c ning tipi mantiqiy (Boolean).
 d ning tipi haqiqiy (single) {butun sondan haqiqiy sonni ayirmasi haqiqiy bo'ladi.}
 e ning tipi butun (word) {butun sonni butun songa ko'patmasi butun bo'ladi.
 Butun songa butun son qo'shilsa butun son hosil bo'ladi.}

2–Mashg’ulot
Asosiy, maxsus va elementar funksiyalar.
(2 soat)

Maqsad:

Reja:

- Paskal tilining asosiy operatorlari.**
- Paskal tilida maxsus va elementar funksiyalar.**

Maqsad:

Paskal tilining asosiy operatorlari o’rganish, foydalana olish va ushbu amallarni bajarish bo'yicha ko'nikma hosil qilish.

Nazariy material:

Foydalanuvchi tomonidan taklif etilgan algoritm asosida qo'yilgan masalani kompyuterda yechish uchun Paskal tilining boshqaruvchi operatorlarini ishlatish zarur bo'ladi. Bu operatorlar oddiy va murakkab ko'rinishga ega. Berilgan ifodaning qiymatini hisoblab, kompyuter xotirasiga joylashtirish uchun o'zlashtirish operatoridan foydalanish mumkin. Bu operator **b:=a** ko'rinishida ifodalanadi. Bu yerda **b**—o'zlashtiruvchi identifikator, **a**—ixtiyoriy ifoda, **:=**—o'zlashtirish belgisi.

Masalan, **a (a=4)** va **b (b=3)** ga ko'paytirib, **c** ni hosil qilish uchun o'zlashtiruvchi operatorordan quyidagicha foydalaniladi:

1 – qadam.	a:=4;
2 – qadam	b:=3;
3 qadam	c:=a•b;

Bu yerda o'zlashtirish operatori yordamida **a**, **b** identifikatorlar uchun xotirada ajratilgan yacheikalarda 4 va 3 qiymatlari hosil qilinadi (1 va 2 qadam). Bu **a** va **b** qiymatlar yacheikalardan chaqirib olinib, o'zaro ko'paytiriladi va xotirada **c** uchun ajratilgan yacheykaga joylashtiriladi.

Paskai tilida dastur:

```
Var
    a,b,c: integer;
Begin
    a:=4;
    b:=3;
    c:=a+b;
End.
```

Bundan tashqari dastur hisoblashi davomida xotirada biror o'zgaruvchi uchun ajratilgan joyda har xil qiymatlarni hosil qilish zarur bo'ladi. Masalan,

1 – qadam **I:=l;**

2 – qadam **I:=I+1.**

Mazkur operatorlar yordamida **I** o'zgaruvchi dastur ishlashi davomida ketma-ket 1,2,3 ... sonlarini qabul qiladi. O'zlashtirish operatori uchun quyidagi amallar to'g'ri va bajarilishi mumkin bo'lgan amallar:

x=2•pi+r; (o'zlashtirish belgisi noto'g'ri berilgan)

x:=2•ln(x); (o'zlashtirish belgisi to'g'ri berilgan)

y:=x•+b/2; (maxsus belgilar ketma–ket yozilgan)

z:=exp(x) (o'zlashtirish operatori tugallanmagan)

3:= i+2; (o'zlashtirish operatorining chap qismida o'zgarmas)

y:=ab (amal noto'g'ri yozilgan)

O'zlashtirish operatori yordamida ixtiyoriy ifodalarni hisoblash va natijalarni xotiraga joylashtirish mumkim. Foydalanuvchi qo'yilgan masalani kompyuterda yechish jarayonida boshlang'ich qiymatlarni xotiraga kiritishi, hosil bo'lgan natijalarni tashqi qurilmalarga chiqarishiga to'g'ri keladi. Kiritish operatori quyidagi ko'rinishda beriladi:

Read(a);

Readln(a);

Bu yerda a kiritilishi zarur bo'lган o'zgaruvchi. Masalan, a=1, b=3, c=2 lar a, b, c o'zgaruvchilar uchun boshlang'ich qiymat bo'lsin.

Read(a,b,c) – a,b,c ning qiymatlari bir qatorda kiritiladi. Har biridan so'ng bo'sh joy (probel) qo'yiladi.

Readln(a,b,c) – a,b,c ning qiymatlari alohida qatorda kiritiladi. Har biridan so'ng 'Enter' tugmasi bosiladi.

Xotirada hosil bo'lган natijalarni foydalanuvchi uchun kerak bo'lган ko'rinishda tashqi qurilmalarda hosil qilish uchun chiqarish operatori ishiatiladi. Chiqarish operatori quyidagicha yoziladi:

Write(a);

Writeln(a);

Bu yerda **a** chiqarilishi zarur bo'lган identifikator.

Chiqarish operatorida axborotlarni matn ko'rinishiga va ishlatilayotgan o'zgaruvchining turiga mos ravishda tashqi qurilmalarda joy ajratilishi zarur bo'ladi. Axborotning matn ko'rinishini tashqi qurilmalarda hosil qilish uchun zarur ifoda ' ' belgilari orasiga olinadi. Masalan, write('TURBO PASKAL'). Butun qiymatlar uchun kerakli pozitsiyalar soni ko'rsatiladi. Haqiqiy sonlar uchun qiymatning butun qismidan tashqari kasr qismi uchun ham joy ajratish zarur bo'ladi. Bu yerda haqiqiy son ishorasi va nuqta uchun ham joy ajratilganligi sababli, qiymatning kasr qismi uchun ajratilgan joy umumiysidan kamida uchtaga farq qilishi zarur bo'ladi. Masalan:

a= 3.14 b=-0.0000002 c:= a•b.

Qiymatlar hisoblanib, asl ko'rinishida kompyuter ekranida hosil bo'lsin. U holda chiqarish operatori quyidagicha ko'rinishda beriladi.:

Paskal tilida dastur:

```
var
    a,b,c: real;
begin
    a:=3.14;
    b:=-0.0000002;
    c:=a•b;
    writeln ('a=' , a:1:3 , 'b=' , b:1:7 , 'c=' , c:1:10 );
end.
```

Shunday qilib, dastur asosida olingan natijalarni tashqi qurilmalarga chiqarishning asoslari bilan tanishdik. Yuqorida olingan bilimlar yordamida chiziqli algoritmga xos bo'lgan dasturlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lamic. Endi chiziqli hisoblash jarayonlarini dasturlashga oid misollar qaraymiz.

Topshiriqlar:

1. $y = e^x$ ni $x=0.3$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
2. $y = ax^2 - bx$ ni $a=1$, $b=2$, $x=5$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
3. $y = \frac{1}{\cos^2 x}$ ni $x=\frac{\pi}{2}$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
4. $y = \frac{1}{\sin^2 x}$ ni $x=\frac{3\pi}{2}$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
5. $y = \sin 3x$ ni $x= 5$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
6. $y = 2 \sin x \cos x$ ni $x=4$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
7. $y = 2 \sin \frac{x}{2} \cos \frac{x}{2}$ ni $x=0.001$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
8. $y = \frac{1+\cos 2x}{2}$ ni $x=\frac{\pi}{2}$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
9. $y = \frac{1+\sin 2x}{2}$ ni $x=\frac{\pi}{2}$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
10. $y = \frac{1}{8}(\cos 4x - 4 \cos 2x + 3)$ ni $x=\frac{5\pi}{2}$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
11. $y = \cos^4(x)$ ni $x=0$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
12. $y = \ln(x) - 3$ ni $x=3$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
13. $y = x^2 - a$ ni $x=3$, $a=8$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
14. $y = e^{x^2}$ ni $x=3$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
15. $y = \cos(x) + \sin(x)$ ni $x=\frac{\pi}{2}$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
16. $y = ax + b$ ni $x=3$, $a=2$, $b=1$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
17. $y = \log_a b$ ni $a=4$, $b=3$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
18. $y = \sqrt{x} + \ln(x) - 4$ ni $x=5$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
19. $y = x + a$ ni $x=6$, $a=0.23510$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
20. $y = \cos(x) + 4$ ni $x=\frac{\pi}{2}$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.
21. $y = ab^2 + 2$ ni $a=2.5$, $b=5.02$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.

22. $y = 5x^2 + e^4$ ni $x=1000$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.

23. $y = \frac{x}{a}$ ni $x=3$, $a=1001$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.

24. $y = a^2 + x^5 + 4$ ni $x=0.23$, $a=1023$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.

25. $y = a^x$ ni $x=8$, $a=9$ da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.

Topshiriqni bajarish namunasi:

Topshiriq: $y = e^{x-6}$ ni $x=8$, da qiymatini hisoblovchi Paskal tilidagi dasturni tuzing.

1) Matematik ifodani Paskal tilida ifodalanadi: EXP(x-6). 2) O'zgaruvchilar va o'zgaruvchilar tipini aniqlanadi: x,y—o'zgaruvchi, x ning tipi – butub son (integer), y natijaning tipi – haqiqiy (real).

Paskai tilida dastur($x=8$ hol):

```
Var
    x:integer;
    y:real;
begin
    x:=8;
    y:=exp(x-6)
    writeln(y);
end.
```

Paskai tilida dastur(umumiy hol):

```
Var
    x:integer;
    y:real;
begin
    read(x);
    y:=exp(x-6)
    writeln(y);
end.
```

Paskal tilida maxsus va elementar funksiya larning berilishi.

Maqsad:

Paskal tilining asosiy operatorlari o'rghanish, foydalana olish va ko'nikma hosil qilish.

Nazariy material:

Butun qiymatlar ustida to'rt arifmetik amaldan tashqari div—butun bo'lismi va mod—qoldiq qiymatni topish mumkin.

7 div 2 = 3	3 div 5 = 0
-5 div 2 = -2 ,	(-9) div (-3) = 3.

m mod n faqat **n>0** bo'lgan qiymatlar uchun ma'noga ega va bu amal uchun quyidagi tenglik o'rini:
 $m \geq 0$, $m \bmod n$, $m < 0$, $m \bmod n$ demak,

m mod n hamma vaqt musbat qiymat qabul qiladi:

$$7 \bmod 2 = 7 - (7 \text{ div } 2) \cdot 2 = 7 - 3 \cdot 2 = 1,$$
$$-9 \bmod 4 = -9 - (-9 \text{ div } 4) \cdot 4 = -9 - (-2 \cdot 4) = -9 + 8 = -1.$$

Butun sonni yaxlitlash va butun qismni aniqlash uchun Turbo pascalning ichki funksiyalari ishlataladi:

Round(x) – Sonni yaxlitlash imkoniyatini beradi. Masalan,

$$\text{round}(6.5)=7$$

$$\text{round}(6.4)=6$$

Trunc(x) – Sonning butun qismini oladi. Masalan,

$$\text{Trunc}(5.6)=5$$

$$\text{Trunc}(6.4)=6$$

Paskal tili yordamida harf va sonlarni o’zi bilangina emas, balki ularni tartib nomeri, ya’ni o’zgaruvchilarning simvol ko’rinishi bilan ham ishlatishimiz mumkin. Simvollar uchun quyidagi funksiyalar ishlataladi:

Chr(n) – n tartib nomeriga mos keluvchi belgini aniqlaydi. Masalan,

$$\text{Chr}(32)=' '$$

$$\text{Chr}(36)='\$'$$

$$\text{Chr}(50)='2'$$

$$\text{Chr}(100)='d'$$

Ord(x) – x belgining tartib nomerini aniqlaydi. Masalan,

$$\text{Ord}(' ')=32$$

$$\text{Ord}(' \$')=36$$

$$\text{Ord}(' 2')=50$$

$$\text{Ord}(' d')=100$$

Pred(x) – x dan oldingi belgining tartib nomerini aniqlaydi. Masalan,

$$\text{Pred}(2)=1$$

$$\text{Pred}(' a')=$$

$$\text{Pred}(' b')=a$$

$$\text{Pred}(' n')=m$$

Succ(x) – x dan keyingi belgining tartib nomerini aniqlaydi. Masalan,

$$\text{Succ}(2)=3$$

$$\text{Succ}(' a')=b$$

$$\text{Succ}(' b')=c$$

$$\text{Succ}(' n')=o$$

Topshiriqlar:

Nº	Div		mod		Trunc	Round
1.	2	2	12	2	23.56	5.6
2.	52	1	15	32	25.3	45.6
3.	14	4	46	1	14.2	12.3
4.	25	5	14	18	2.56	45.7
5.	14	7	18	24	2.3	48.5
6.	15	8	29	1	5.8	46.2

7.	56	1	45	5	18.2	15.4
8.	45	2	65	2	14.	78.2
9.	789	2	85	4	56.2	89.5
10.	45	5	95	7	12.3	12.8
11.	125	4	75	8	14.5	82.28
12.	524	9	54	9	18.6	28.01
13.	89	6	48	2	12.9	23.01
14.	56	3	52	4	12.5	28.80
15.	65	2	14	8	98.2	26.25
16.	54	5	42	6	45.2	3.6
17.	53	7	53	3	26.3	3.5
18.	25	81	59	5	41.02	2.1
19.	59	15	52	9	10.25	1.5
20.	85	9	61	7	0.2587	1.9
21.	76	5	72	1	10.25	1.3
22.	65	4	81	4	14.25	2.35
23.	48	6	93	6	12.4	1.25
24.	59	8	98	2	7.58	4.5
25.	85	5	57	8	1.25	6.3
26.	75	4	49	4	123.25	5.6
27.	46	2	16	5	7.8	2.8
28.	36	36	14	7	9.6	3.9
29.	29	215	15	9	45.3	5
30.	27	18	24	2	12.5	2.36

Topshiriqni bajarish namunasi:

Topshiriq:

Nº	Div		mod		Trunc	Round
31.	12	2	12	2	23.56	23.56

- 1) $12 \text{ div } 2 = 6$ { 12 sonni 2 sonniga bo'lib, bo'linmaning butun qismini qaytaradi. }
- 2) $12 \text{ mod } 2 = 0$ { 12 sonni 2 sonniga bo'lib, bo'linmaning o'nli qismini qaytaradi. }
- 3) $\text{Trunc}(23.56) = 23$ { Sonning butun qismini oladi . }
- 4) $\text{Round}(23.56) = 24$ { Sonni oxirgi raqamiga qarab yaxlitlaydi }

3–Mashg’ulot

Shartsiz va shartli o’tish, variant operatorlari.

(2 soat)

Maqsad: Paskal tilida shartsiz va shartli operatorlarning yozilishi va ularning qo’llanishini o’rganish, ushbu amallarni bajarish bo’yicha ko’nikma hosil qilish.
Nazariy material:

Kompyuterda hisoblash jarayonida ba’zi hollarda boshqarishni dasturning biror qismidan ikkinchi qismiga ko’chirishga to’g’ri keladi. Bu vazifani shartsiz o’tish operatori bajaradi. Bu operator **Goto** deb nomlanadi. Uning e’lon qilinishi quyidagicha:

Goto a;

Bu erda a–dasturda label operatori yordamida e’lon qilinuvchi nishonni aniqlaydi. Masalan,

Label a,b;

.....


Goto a;

a:.....

Goto b;

b:.....

Lekin ko’pchilik masalalarda boshqarishni biror shart yordamida o’zgartirishga to’g’ri keladi. Quyida chizma ko’rinishida keltirilgan funksiyani argumentning



ixtiyoriy qiymati uchun hisoblash masalasini ko’rib chiqaylik.

Chizma ko’rinishida keltirilgan funksiyani matematik ifodalar yordamida (analitik) yozib olish ham mumkin. $y = \begin{cases} 1, & \text{agar } |x| \geq 1 \\ |x|, & \text{agar } -1 < x < 1 \end{cases}$

Qaralayotgan masalada boshqarish oldindan ma’lum bo’lgan shart asosida bir operatordan ikkinchisiga o’zgartiriladi. Bunday hollar juda ko’p masalalarda uchraganligi sababli har qanday algoritmik tillarda bo’lgani kabi Paskal tilida ham shartli o’tish operatorlari mavjud. Shartli operatorning umumiyligi ko’rinishi quyidagicha:

If Conditions then a else b;

Bu yerda Conditions–mantiqiy ifoda, a, b–ixtiyoriy operator yoki ifodalar. Operator quyidagi tartibda bajariladi: Conditions–mantiqiy ifodaning rost qiymatlari

uchun **a** operator, yolg'on qiymatlari uchun **b** operator bajariladi yoki ifodalar hisoblanadi. Masalan, yuqorida hisoblash algoritmi berilgan funksiya uchun shartli o'tish operatori quyidagicha yoziladi:

```
If abs(x)>1 then
```

```
    y:=1
```

```
else
```

```
    y:=abs(x);
```

Ba'zi hollarda shartli o'tish operatorining qisqacha ko'rinishini ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi:

```
If Conditions then a;
```

Bu yerda **Conditions** mantiqiy ifodaning rost qiymati uchun **a** operator bajariladi, aks holda keyingi ixtiyoriy operator bajariladi. Yuqorida chizma ko'rinishida berilgan funksiyani x ning ixtiyoriy qiymati uchun hisoblash dasturini keltiramiz:

```
var
    x,y:real;
begin
    writeln('x qiymatni kirit:');
    readln(x);
    if abs(x)>1 then
        y:=1
    else
        y:=abs(x);
    writeln ('NATIJA y= ',y:1:3);
end.
```

Tarmoqlanuvchi jarayonlarini dasturlashga oid yana bir misol qaraylik. Ushbu $y = \begin{cases} |x|, & \text{agar } x < 0 \\ e^x, & \text{agar } x = 0 \\ \text{funksiya qiymatini hisoblash algoritmi va dasturini tuzing.} \\ x, & \text{agar } x > 0 \end{cases}$

Masalani yechishning hisoblash jarayoniga mos algoritmini keltiramiz.

Bu masalani hisoblash jarayoniga mos dasturni ikki usulda keltiramiz.

1- Usul.

```
var
    x,y:real;
begin
    writeln('xni qiymatini kirit:');
    readln(x);
    if x=0 then
        y:=exp(x)
    else
        if x>0 then
            y:=x
        else
            y:=abs(x);
```

```

        writeln('NATIJA y=' ,y:1:1);
end.
2- Usul.
var
    x,y:real;
    label a,b,c;
begin
    writeln('xni qiymatini kirit:' );
    readln(x);
    if x=0 then goto a;
    if x<0 then goto b;
    y:=x; goto c;
    a: y:=exp(x); goto c;
    b: y:=abs(x); goto c;
    c: writeln('NATIJA y=' ,y:1:1);
end.

```

VARIANT OPERATORI

Ba'zi hollarda ko'p qismli dasturlar bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi, dasturning kerakli qismiga muayyan shartning bajarilishi asosida o'tiladi. Bunday masalalar uchun Turbo paskal tilida alohida operator ishlataladi. Bu operatorni variant operatori deb aytamiz. Bu operatordan dasturda 3 va undan ortiq shartlar asosida ishslashga to'g'ri kelganda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, monitor ekranida oylarni chiqarish vazifasi qo'yilgan bo'lsin. Bu masalani yechish uchun har oyga mos qilib bir belgi tanlanadi va shu belgi bosilganda mos oyni nomini chiqarib beradi. Uning dasturi quyidagicha:

```

var
    ch:char;
begin
    writeln('Oyning tartib raqamini kirit:' );
    read(ch);
    case Ch of
        '1':writeln('Yanvar');
        '2':writeln('Fevral');
        '3':writeln('Mart');
        '4':writeln('Aprel');
        '5':writeln('May');
        '6':writeln('Iyun');
        '7':writeln('Iyul');
        '8':writeln('Avgust');
        '9':writeln('Sentabr');
        'a':writeln('Oktabr');
        'b':writeln('Noyabr');
        'c':writeln('Dekabr');
    else

```

```

        WriteLn('Oyning tartib raqami
kiritilmadi.');
    end;
    readln;
end.

```

Bu dasturda oylarga mos belgilar ushu jadvaldan foydalanilgan:

Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun
1	2	3	4	5	6
Iyul	Avgust	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr
7	8	9	a	b	c

Dasturdan ko'rinib turibdiki, **Ch** indentifikatori qabul qilgan qiymatiga mos ravishda variant operatorining kerakli qismi amalga oshiriladi va dastur o'z vazifasini **end** operatoridan keyin odatdagidek amalga oshiradi. Umuman olganda bu operatorda **ch** indentifikatori o'rnida ixtiyoriy ifoda bo'lishi mumkin va ular qabul qiluvchi qiymatiga mos ravishda case operatorining kerakli qismi amalga oshiriladi. **Case** operatori qo'llanilishiga oid 2– masala. Bosilgan klaviaturadagi tugmalarni sinfga ajratuvchi dastur tuzing. Masalan, **a** tugmasi uchun 'harf', **2** tugmasi uchun 'son' va + tugmasi uchun 'amal' yozuvini chiqarsin. Bu dastur quyidagicha bo'ladi.

```

var
    ch:char;
begin
    writeln('Tugmani bosing:');
    read(ch);
    case Ch of
        'A'..'Z', 'a'..'z': WriteLn('harf');
        '0'..'9':           WriteLn('son');
        '+', '-', '*', '/': WriteLn('amal');
        else
            WriteLn('Aniqlanmagan tugma bosildi.');
    end;
    readln;
end.

```

Topshiriqlar:

1. $y = \begin{cases} x - a, & \text{agar } x > a, \\ e^{x-a}, & \text{agar } x = a, \\ a - x, & \text{agar } x < a. \end{cases}$ funksiyani hisoblash dasturi tuzilsin.
2. $y = \begin{cases} \sqrt[5]{x-\pi} + \sin\left(\frac{\pi}{2}\right), & \text{agar } x = \frac{\pi}{2}, \\ \operatorname{arctg}\left(\sqrt{x+1}\right), & \text{agar } x > \frac{\pi}{2}. \end{cases}$ funksiyani hisoblash dasturi tuzilsin.

3. $y = \begin{cases} \sin(\cos(x)), & \text{agar } x < \frac{\pi}{2}, \\ \sin(\sqrt{x}), & \text{agar } x = \frac{\pi}{2}, \text{ funksiyani hisoblash dasturi tuzilsin.} \\ \operatorname{tg}(\sqrt{x+1}), & \text{agar } x > \frac{\pi}{2}. \end{cases}$
4. $y = \begin{cases} a \cos(wt), & \text{agar } |a - wt| < 1, \\ a \sin(wt), & \text{agar } |a - wt| \geq 1. \end{cases}$ funksiyani hisoblash dasturi tuzilsin.
5. $y = \begin{cases} 4x + 5\sqrt{x-2}, & \text{agar } x > 2, \\ x^2 - \sqrt[4]{x+4}, & \text{agar } x < 2, \text{ funksiyani hisoblash dasturi tuzilsin.} \\ 4x^3 - \cos(x), & \text{agar } x = 2. \end{cases}$
6. $y = \begin{cases} \cos^2\left(\frac{\pi}{2}x\right), & \text{agar } x = \frac{\pi}{4}, \\ \cos(2x), & \text{agar } x = \frac{3\pi}{4}. \end{cases}$ funksiyani hisoblash dasturi tuzilsin.
7. $y = \begin{cases} x^a + \ln(x), & \text{agar } x > a, \\ x^2 + e^{x-a}, & \text{agar } x = a, \text{ funksiyani hisoblash dasturi tuzilsin.} \\ a^x - \sin(a-x), & \text{agar } x < a. \end{cases}$
8. $y = \begin{cases} \sin\left(\frac{x}{\sqrt{4x+x^3}}\right), & \text{agar } x < \frac{\pi}{7}, \\ 2\sqrt{x+\cos(x)} + 1, & \text{agar } x > \pi. \end{cases}$ funksiyani hisoblash dasturi tuzilsin.

Topshiriqni bajarish uchun namuna:

$$y = \begin{cases} e^x, & \text{agar } x = 0, \\ x^2, & \text{agar } x \neq 0. \end{cases} \quad \text{funksiyani hisoblash dasturi tuzilsin.}$$

Topshiriqni bajarish namunasi:

```
1 - topshiriq
Var
X:real;
Begin
Read(x);
if x=0 then
writeln(exp(x))
else
writeln(sqr(x));
end; end.

2 - topshiriq:
var
x:real;
label a,e;
begin
read(x);
if x=0 then goto a;
writeln(sqr(x)); goto e;
a: writeln(exp(x));
e: end.
end.

3 - topshiriq:
Var
x:integer;
Begin
Read(x);
Case ch of
0: writeln(exp(x))
Else
writeln(sqr(x));
End;
End.
```

4-Mashg'ulot

Qaytarilish jarayonlarini dasturlash. Parametrli qaytarilish jarayoni.

Maqsad: Paskal tilida Qaytarilish jarayonlarini dasturlashni, Parametrli qaytarilish jarayoni yozilishi va ularning qo'llanishini o'rghanish, ushbu amallarni bajarish bo'yicha ko'nikma hosil qilish.

Nazariy material:

QAYTARILISH JARAYONLARINI DASTURLASH.

Qaytarilish jarayonlarini hisoblash uchun uch xil ko'rinishdagi operatorlar mavjud. Bularidan birinchisi qaytarilish jarayonining to'xtash sharti oldin berilgan ushbu operatordir:

While B do A;

Bu yerda **B** mantiqiy ifoda, **A**- ixtiyoriy ifoda yoki operatorlar majmuasi. Bu operator "...bo'lguncha bajar....." ma'nosini anglatadi, ya'ni **while** operatoridan keyingi mantiqiy ifoda **B** rost (true) qiymat qabul qilguncha **do** operatoridan keyingi qaralayotgan operatorning tanasi hisoblanmish **A** qaytarilish davom etaveradi. Bu operatorning ishlashini $n!$ faktorial nomi ma'lum bo'lgan qiymatni ixtiyoriy n uchun hisoblashda ko'rib chiqamiz. Bu misolga mos bo'lgan hisoblash dasturini keltiramiz:

Dasturi:

```
var
    n,i,S:longint;
begin
    S:=1;
    i:=1;
    writeln('n ni kirit:');
    readln(n);
    while i<=n do
        begin
            S:=S•i;
            i:=i+1;
        end;
    writeln('NATIJA: ',n,' != ',S);
    readln ;
end.
```

	Kompyuter ekranida	Foydalanuvchi kiritishi lozim
1- qo'llash	n ni kirit:	3
	NATIJA: 3!=6	
2- qo'llash	n ni kirit:	10
	NATIJA: 10!=3628800	
3- qo'llash	n ni kirit:	5
	NATIJA: 5!=120	
4- qo'llash	n ni kirit:	15
	NATIJA: 15!=2004310016	
5- qo'llash	n ni kirit:	12
	NATIJA: 12!=479001600	

Bu operatorda mantiqiy ifoda aniqlanishida qaytarilish jarayonining cheksiz davom etmasligini ta'minlash kerak.

Qaytarilish jarayonida **Repeat** operatori yuqoridagi operatordan farqli ravishda bu yerda qaytarilish jarayoning to'xtatish sharti eng oxirida beriladi. Operatorning yozilishi quyidagicha:

Repeat

until B;

Bu yerda birinchi operator tanasining boshlanishini ko'rsatsa, oxirgi operator uning tugaganini aniqlaydi. **B** mantiqiy ifoda rost qiymat qabul qilguncha qaytarilish jarayoni davom etadi. Repeat operatori yordamida kompyuterda elementar funksiyalarni hisoblash algoritmini berishimiz mumkin. Misol sifatida $n!$ ni qaraymiz.

```
var
    n,i,S:longint;
    key:char;
begin
    repeat
        S:=1;
        i:=1;
        writeln('n ni kirit:');
        readln(n);
        repeat
            S:=S*i;
            i:=i+1;
        until i>n;
        writeln(n,'!=',S);
        writeln('hisoblashni xoxlaysizmi?(h/y)');
        readln(key);
    until (key='y') or (key='Y');
end.
```

Ikki qaytarilish jarayoniga doir misol sifatida eksponensial funksiyalarni qaraymiz:

$$e^x = 1 + x + \frac{x^2}{2!} + \dots + \frac{x^n}{n!} + \dots, \left| \frac{x^n}{n!} \right| < \varepsilon,$$

Bu yerda **e** qiymati oldindan berilgan cheksiz kichik son bo'lib, qatorga yoyilgan funksiyani hisoblashdagi kerakli aniqlik darajasini ta'minlaydi. Bu misolga mos bo'lган hisoblash dasturini keltiramiz:

```
var
    e,Y,S:real;
    x,n:integer;
    key:char;
begin
```

```

repeat
    S:=1;
    Y:=1;
    n:=1;
    writeln('x ni kirit:');
    read(x);
    writeln('Aniqlikni kirit:');
    readln(e);
    while abs(Y)>=e do
        begin
            Y:=Y•(x/n);
            S:=S+Y;
            n:=n+1;
        end;
    writeln('exp(' ,x, ')=' ,S:1:15);
    write('hisoblashni xoxlaysanmi?(h/y)');
    readln(key);
until (key='y') or (key='Y');
end.

```

	Kompyuter ekranida	Foydalanuvchi kiritishi lozim
1– qo'llash	x ni kirit:	2
	Aniqlikni kirit:	5
	Exp(2)=7.38906	
2– qo'llash	x ni kirit:	4
	Aniqlikni kirit:	2
	Exp(4)=54.60	
3– qo'llash	x ni kirit:	1
	Aniqlikni kirit:	1
	Exp(1)=2.7	
4– qo'llash	x ni kirit:	9
	Aniqlikni kirit:	4
	Exp(9)=8103.0839	
5– qo'llash	x ni kirit:	10
	Aniqlikni kirit:	3
	Exp(10)=22026.466	

Shunday qilib, argumentning ixtiyoriy qiymati uchun eksponensial funksiyani hisoblash dasturini hosil qildik. Bu dasturda qaytarilishlar soni oldindan ma'lum bo'lmay, berilgan shart asosida aniqlanadi. Lekin ko'pchilik masalalarda qaytarilishlar soni oldindan ma'lum bo'ladi. Bunday hollarda parametrlidagi qaytarilish operatorlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

PARAMETRLI QAYTARILISH OPERATORI.

Bu operator quyidagicha beriladi:

for i:=a to b do S;

bu yerda **i** – qaytarilish parametri; **a** – parametr o’zgarishining quyi chegarasi; **b** – parametr o’zgarishining yuqori chegarasi; **S** – qaytarilish jarayonida hisoblanishi zarur bo’lgan ifoda yoki bajarilishi kerak bo’lgan operator.

Yuqorida keltirilgan operatorda quyi chegara **a** yuqori chegara **b** dan kichik bo’lishi zarur, ya’ni **a<b**, aks holda operatorda **to** operatorining o’rniga **downto** operatori ishlataladi.

1–misol. Bizga quyidagi ko’phadni **x** ning ixtiyoriy qiymatida hisoblash zarur bo’lsin. Ko’phad: $S = 1 + x + x^2 + x^3 + \dots + x^n$

Dasturi:

```

var
  S,x:real;
  n,i:integer;
begin
  S:=0;
  writeln('x ni kirit:');
  readln(x);
  writeln('n ni kirit:');
  readln(n);
  for i:=0 to n do
    S:=S+exp(i*ln(x));
  writeln('NATIJA: S=' ,S:1:3);
  readln;      end.

```

	Kompyuter ekranida	Foydalanuvchi kiritishi lozim
1– qo’llash	x ni kirit: n ni kirit: NATIJA: S=11.000	1 10
2– qo’llash	x ni kirit: n ni kirit: NATIJA: S=12207031.000	5 10
3– qo’llash	x ni kirit: n ni kirit: NATIJA: S=820.000	9 3
4– qo’llash	x ni kirit: n ni kirit: NATIJA: S=1288547961500000.000	10.1 15
5– qo’llash	x ni kirit: n ni kirit: NATIJA: S=318240965210000000000000000000000000000.000	2.1 100

Endi quyidagi masalani qaytarilish operatori yordamida dasturlash masalasini ko’rib chiqamiz.

2-misol. $K(10) = 2006$, $K(n) = k(n+1) - n$ $n = 9, 8, 7, \dots, 1$ K ning qiymatlarini hisoblab, jadval ko'rinishida tasvirlang.

Dasturi:

```
var
k,i:integer;
begin
k:=2006;
for i:=9 downto 0 do
begin
writeln('k[ ',i+1,' ]=' ,k);
k:=k-(i);
end;
end.
```

Kompyuter ekranida
k(10)=2006
k(9)=1997
k(8)=1989
k(7)=1982
k(6)=1976
k(5)=1971
k(4)=1967
k(3)=1964
k(2)=1962
k(1)=1961

Bu misoldan ko'rinish turibdiki, qaytarilish chegarasi har xil bo'lgan hollar uchun parametrli qaytarilish operatori ishlatalishi mumkin. Takrorlanuvchi hisoblash jarayonlarini dasturlashda qaytarilish operatorini ishlatishga yana bir misol qaraylik.

3-misol. Quyidagi qo'sh yig'indi ko'paytmaning qiymatini hisoblash dasturini

$$\sum_{k=2}^5 \prod_{n=1}^{10} \frac{(k^{n+1} - \sqrt[n]{a})}{\ln(3k + n^k)}, \quad a = 4,53$$

Dasturi:

```
var
S,p,a:real;
n,k:integer;
begin
a:=4.53;
S:=0;
k:=2;
while k<=5 do
begin
p:=1;
for n:=1 to 10 do
begin
p:=p•(exp((n+1)•ln(k))-
(exp((1/n)•ln(a))))/(ln(3•
•sqr(k)+exp((k)•ln(n)))) ;
end;
S:=S+p;
k:=k+1;
end;
writeln('NATIJA S=' ,S:1:5); end.
```

3 – misolning dasturini ikkinchi usulda tuzish:

```

var
  S,p,a:real;
  n,k:integer;
begin
a:=4.53;
S:=0;
k:=2;
repeat
  p:=1;
  for n:=1 to 10 do
    begin
      p:=p•(exp((n+1)•ln(k))-
      (exp((1/n)•ln(a))))/(ln(3•
      •sqr(k)+exp((k)•ln(n)) ));
    end;
  S:=S+p;
  k:=k+1;
until k>5;
writeln('NATIJA S=' ,S:1:5);      end.

```

3 – misolning dasturini uchinchi usulda tuzish:

```

var
  S,p,a:real;
  n,k:integer;
begin
a:=4.53;
S:=0;
  for k:=2 to 5 do
    begin
      p:=1;
      for n:=1 to 10 do
        begin
          p:=p•(exp((n+1)•ln(k))-(exp((1/n)•
            •ln(a))))/(ln(3•sqr(k)+exp((k)•
            •ln(n))) );
        end;
      S:=S+p;
    end;
writeln('NATIJA S=' ,S:1:5);           end.

```

Tuzilgan dasturlar bir xil natija chqaradi.

Topshiriqlar:

1. $S = 1 + 2 + 3 + \dots + n$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.

2. $S = \frac{1}{1*4} + \frac{1}{4*7} + \dots + \frac{1}{(3n-2)*(3n+1)}$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
3. $S = 1 + x + \frac{x}{2} + \frac{x}{3} + \dots + \frac{x}{n}$, $x=2n$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
4. $S = 100 - 1 + 4 - 9 + 16 - \dots + n^2$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
5. $S = \sum_{n=1}^{10} \frac{n}{3n+1}$, berilgan yig'indini while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
6. $S = (1+x) + (1+x)^2 + (1+x)^3 + \dots + (1+x)^n$, $x=4.3$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
7. $S = \frac{1}{2} + \frac{1}{4} + \frac{1}{9} + \dots + \frac{1}{n^2}$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
8. $S = 1 + \sqrt{2} + \sqrt{3} + \dots + \sqrt{n}$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
9. $S = \left(\frac{x}{1}\right) + \left(\frac{x}{2}\right) + \left(\frac{x}{6}\right) + \dots + \left(\frac{x}{n!}\right)$, $x=100$ berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
10. $S = 1 - x + x^2 - x^3 + \dots + (-x)^n$, $x=0.2$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
11. $S = 1 + 2^2 + 3^2 + \dots + n^2$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
12. $S = \frac{1}{1*3} + \frac{1}{4*6} + \dots + \frac{1}{(3n-2)*(3n)}$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
13. $S = 1 + x + \frac{x^2}{2} + \frac{x^3}{3} + \dots + \frac{x^n}{n}$, $x=2$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
14. $S = 1 + 4 + 9 + 16 + \dots + n^2$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.
15. $S = \sum_{n=1}^{10} \frac{\ln(n)}{3n+1}$, berilgan yig'indini while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.

$S = (1+x) + (2+x)^2 + (3+x)^3 + \dots + (n+x)^n$, $x=4.3$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.

Topshiriqni bajarish namunasi:

$S = (1+x) + (2+x)^2 + (3+x)^3 + \dots + (n+x)^n$, $x=4.3$, berilgan yig'indini ixtiyoriy n uchun while, repeat, for qaytarilish jarayoni operatorlari orqali hisoblash dasturini tuzing.

While orqali tuzish:

```
const x=4.3;
var
i,n:integer;
s:real;
begin
read(n);
s:=0; i:=1;
while i<=n do
begin
s:=s+exp(i*ln(i+x));
i:=i+1;
end;
writeln(s);
end.
```

Repeat orqali tuzish:

```
const x=4.3;
var
i,n:integer;
s:real;
begin
read(n);
s:=0; i:=1;
repeat
s:=s+exp(i*ln(i+x));
i:=i+1;
until i>=n;
writeln(s);
end.
```

For orqali tuzish:

```
const x=4.3;
var
i,n:integer;
s:real;
begin
read(n);
for i:=1 to n do
s:=s+exp(i*ln(i+x));
writeln(s);
end.
```

5–Mashg’ulot

O’zgaruvchilarning satriy tiplari.

Maqsad: Paskal tilida O’zgaruvchilarning satriy tiplari yozilishi va ularning qo’llanishini o’rganish, ushbu amallarni bajarish bo'yicha ko'nikma hosil qilish.

Nazariy material:

Satrlar avval keltirilgandek belgilar ketma-ketligi sifatida aniqlanadi. Bitta belgidan tashkil topgan satrni **char** tipi elementi sifatida qabul qilish mumkin. N ta belgidan ($N > 1$) iborat satrni quyidagicha ifodalash mumkin.

array[1..N] of char;

Bunday tip satriy tip deyiladi. Ikkita satr ustida munosabat amallarini bajarish mumkin.

String tipini quyidagicha aniqlash mumkin: string = array [Index] of Char

String tipini dasturda qayta aniqlash shart emas.

Satriy tipga mansub o’zgaruvchilarni quyidagicha e’lon qilish lozim:

```

var
Str : string;
begin
Str :=‘Satr uzunligi 35 ta belgidan iborat’;
end.

```

Satriy tipga mansub o’zgaruvchilarning minimal uzunligi 2ga va maksimal uzunligi 255 ga tengdir.

```

type
Strone = string[255];
Strtwo = string[2];
var
S1 : strone;
S2 : strtwo;

```

Yuqoridagi yozuvga ekvivalent yozuv:

```

var
Str1 : string[255];
Str2 : string[2];

```

Satriy o’zgaruvchilarga satriy qiymatlarning birlashmasi (+)ni qiymat qilib berish mumkin. Masalan,

satriy qiymatlar	satriy qiymatlarning birlashmasi
String:=‘TURBO’+’ PASKAL’;	TURBO PASKAL
String:=‘O’z’+’bek’;	O’z+bek
String:=‘1+9=’+s ; s:=‘10’;	1+9=10
String:=s1+’ ’+s2; s1:=‘satriy’; s2:=tip	satriy tip
String:=‘lola’+’@’+’mail.ru’;	lola@mail.ru

Satriy tipga mansub o’zgaruvchilarni char tipiga mansub qiymatlardan tashkil topgan massiv sifatida qarash mumkin:

I :=0 **to** 255 **do** Str2[I]:=chr(I);

Misol: Berilgan so’zni har bir harfini enter bosilgandan so’ng ekranga chiqaring.
Dasturi:

```

var
  str:string[10];
  i:integer;
begin
  str:='Uzbekiston';
  i:=1 to 10 do
  begin
    readln;
    writeln(i,'-hafr ',str[i]);
  end;
  readln;  end.

```

Foydalanuvchi kitishi lozim	Kompyuter ekranida
Enter tugmasi bosiladi.	1-harf U
Enter tugmasi bosiladi.	1-harf z
Enter tugmasi bosiladi.	1-harf b
Enter tugmasi bosiladi.	1-harf e
Enter tugmasi bosiladi.	1-harf k
Enter tugmasi bosiladi.	1-harf i
Enter tugmasi bosiladi.	1-harf t
Enter tugmasi bosiladi.	1-harf o
Enter tugmasi bosiladi.	1-harf n

string tipiga mansub o'zgaruvchilar ustida amal bajaruvchi bir nechta ichki protsedura va funksiyalar mavjud. Quyida ushbu protsedura va funksiyalardan bir nechta keltirilgan:

Concat funksiyasi. Standart Concat (birlashma) funksiyasi matnli satrlarning birlashmasini qaytaradi. Masalan,

```

Var
  Ch:char;
  i:integer;
  S,str: String;
Begin
  Write('Isimni kirit:');
  Raedln(str);
  Write('Jinsini qaniqa(1/0):');
  Raedln(ch);
  If ch='1' then
    S := Concat(str,'jon');
  else
    S := Concat(str,'xon');
  Writeln(S);  end.

```

	Foydalanuvchi kiritishi lozim	Kompyuter ekranida
1- qo'llash	Isimni kirit:	Bekzod
	Jinsini qaniqa(1/0):	1
	Bekzodjon	

2- qo'llash	Isimni kirit:	Lola
	Jinsini qaniqa(1/0):	0
	Lolaxon	
3- qo'llash	Isimni kirit:	Sardor
	Jinsini qaniqa(1/0):	1
	Sardorjon	
4- qo'llash	Isimni kirit:	Ali
	Jinsini qaniqa(1/0):	1
	Alijon	
5- qo'llash	Isimni kirit:	Guli
	Jinsini qaniqa(1/0):	0
	Gulixon	

Length funksiyasi. Standart Length (uzunlik) funksiyasi matnli satrning uzunligini qaytaradi. Masalan,

```

var
    Str : string;
begin
    Write ('So'zni kirit:');
    Readln (Str);
    Writeln ('So'z ',Length(Str), ' ta
              harf mavjud');
end.

```

	Foydalanuvchi kiritishi lozim	Kompyuter ekranida
1- qo'llash	So'zni kirit:	Bekzod
	So'z 6 ta harf mavjud	
2- qo'llash	So'zni kirit:	Lola
	So'z 4 ta harf mavjud	
3- qo'llash	So'zni kirit:	Sardor
	So'z 6 ta harf mavjud	
4- qo'llash	So'zni kirit:	Ali
	So'z 3 ta harf mavjud	
5- qo'llash	So'zni kirit:	Guli
	So'z 4 ta harf mavjud	

Upcase funksiyasi. Kichik simvolni katta simvolga aylantiradi. Masalan,

```

var
    s:string;
    i:integer;
begin
    write('So'zni kirit:');
    readln(s);
    i:=1 to length(s)do
        s[i]:=upcase(s[i]);
    writeln(s);
    readln end.

```

	Foydalanuvchi kiritishi lozim	Kompyuter ekranida
1- qo'llash	So'zni kirit:	Bekzod
	BEKZOD	
2- qo'llash	Isimni kirit:	Lola
	LOLA	
3- qo'llash	Isimni kirit:	Sardor
	SARDOR	
4- qo'llash	Isimni kirit:	Ali
	ALI	
5- qo'llash	Isimni kirit:	Guli
	GULI	

Copy funksiyasi. Satrning biror qismidan nusxa olish uchun ishlatiladi. Ushbu funksianing uchta parametri mavjud bo'lib, copy(s,n,m) ko'rinishda yoziladi. Bunda s – satr o'zgaruvchisi, n – satr fragmentining boshi, m – nusxa olinish soni. Natija sifatida satrdan nusxa olingan fragment qaytariladi. Masalan,

```

var
    s,str:string;
    n,m:integer;
begin
    write('So'zni kirit:');
    readln(s);
    write('fragment boshini kirit:');
    readln(n);
    write('nusxa olish sonini kirit:');
    readln(m);
    Str:=copy(s,n,m);
    writeln(str);
    readln
end.

```

	Foydalanuvchi kiritishi lozim	Kompyuter ekranida
1- qo'llash	So'zni kirit:	Bekzod
	fragment boshini kirit:	1
	nusxa olish sonini kirit:	3
	Bek	
2- qo'llash	So'zni kirit:	Lola
	fragment boshini kirit:	3
	nusxa olish sonini kirit:	2
	La	
3- qo'llash	So'zni kirit:	Sardor
	fragment boshini kirit:	4
	nusxa olish sonini kirit:	3
	Dor	

4- qo'llash	So'zni kirit:	Ali
	fragment boshini kirit:	2
	nusxa olish sonini kirit:	2
	Li	
5- qo'llash	So'zni kirit:	Guli
	fragment boshini kirit:	2
	nusxa olish sonini kirit:	2
	Ul	

Pos funksiyasi. Pos funksiyasi satrdagi joriy fragment joylashgan indeksni qaytaradi. Agar bunday fragment mavjud bo'lmasa, funksiya nolni qaytaradi. Masalan,

```

var
    S,Str : string;
    h:integer;
begin
    write('So'zni kirit:');
    readln(s);
    Write ('Izlash fragmentini kirit:');
    ReadLn (Str);
    h := Pos(str,S);
    if h<>0 then
        Writeln('satrda fragment quyidagi
o'rindan boshlab joylashgan, ',
        h,'.')
    else
        Writeln('satrda ushbu fragmet mavjud
emas.');?>
end.

```

	Foydalanuvchi kiritishi lozim	Kompyuter ekranida
1- qo'llash	So'zni kirit:	Bekzod
	Izlash fragmentini kirit:	Zod
	4	
2- qo'llash	Isimni kirit:	Lola
	Izlash fragmentini kirit:	A
	4	
3- qo'llash	Isimni kirit:	Sardor
	Izlash fragmentini kirit:	a
	2	
4- qo'llash	Isimni kirit:	Ali
	Izlash fragmentini kirit:	u
	satrda ushbu fragmet mavjud emas	
5- qo'llash	Isimni kirit:	Guli
	Izlash fragmentini kirit:	h
	satrda ushbu fragmet mavjud emas	

Insert va Delete protseduralari. Ushbu protseduralar yordamida satrga biror so'z (belgi)ni qo'shish va satrdan biror so'z (belgi)ni o'chirish mumkin.

Insert(S1,S2,n) operatori S2 satrning N-pozitsiyasidan boshlab S1 satrni joylashtiradi.

Delete(Str,m,n) operatori str satrning m-pozitsiyasidan boshlab n uzunlikdagi belgini o'chiradi. Masalan,

```
var
    S1,S2 : string;
begin
    S1:='MICROSOFT';
    S2 :=' OFFICE';
    WriteLn(S1);
    Insert(S2,S1,11);
    WriteLn(S1);
    Delete(S1,6,4);
    WriteLn (S1);
end.
```

Natija:
MICROSOFT
MICROSOFT OFFICE
MICRO

Topshiriqlar:

1. Saidov so'ziga a begini birlashtirib, Saidova so'zini hosil qilish dasturini tuzing.
2. BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI so'zini so'zlar birlashmasidan hosil qilish dasturini tuzing.
3. Shunday str o'zgaruvchi tuzingki u qabul qiluvchi belgilar soni 15 tadan ortmasin. str o'zgaruvchi 15 belgidan iborat to'g'ri va ko'p bo'lsa noto'g'ri qiymat beruvch dastur tuzilsin.
4. 5ga ko'paytirirish jadvalini ekranga chiqarish dasturini tuzing.
5. 10 ga qo'shish jadvalini ekranga chiqarish dasturini tuzing.
6. Ekranga 10, 20,...,90 o'nliklarni chiqarish dasturini tuzing.
7. So'zda harflar sonini hisoblovchi dastur tuzing.
8. Gapdagi so'zlar sonini aniqlovchi dastur tuzing. Eslatma: Gap nuqta bilan tugaydi va so'zlar orasida '' belgisi bo'ladi.
9. So'zni ASCII kodini qaytaruvch dastur tuzing.
10. Gapdagi b harfining sonini aniqlovchi dastur tuzing.

Topshiriqni bajarish namunasi:

Microsoft so'zini bosh harflar bilan ifodalovchi dastur tuzing.

Dasturi:

```
var i:byte;
s:string;
begin
    s:='microsoft';
    for i:=1 to length(s) do
        write(uppercase(s[i]));
    end.
```

6–Mashg’ulot

O’zgaruvchilarning massiv ko’rinishi.

Maqsad: Paskal tilida O’zgaruvchilarning satriy tiplari yozilishi va ularning qo’llanishini o’rganish, ushbu amallarni bajarish bo'yicha ko'nikma hosil qilish.

Nazariy material:

Turbo paskal tilida **const** operatori yordamida faqat o’zgarmas qiymatlarni berish bilan cheklanish shart emas. Bu operator yordamida belgilarni, so’zlarni va yachevkalarining manzillarini ham e’lon qilish mumkin, masalan,

Const

Sc=‘\$’; {o’zgarmas belgi}

Hc=‘Enter’;{o’zgarmas so’z}

Add=Buxoro;{o’zgarmas manzil}

Ok=true;{mantiqiy o’zgarmas}

Turbo paskal tilida o’zgarmaslarni e’lon qilish paytida ixtiyoriy arifmetik, mantiqiy va solishtirish amallarini ham bajarish mumkin. Bundan tashqari ishlatilayotgan ifodalarda elementar funksiyalar ham qatnashishi mumkin:

Const

Min=0;

Max=500;

Interval=max–min+1;

Key=chr(27);

Flag=ptr(\$0000,\$OOfO);

Dasturda hisoblash jarayoni boshlangan paytda xotira yachevkalarida oldingi hisoblardan hosil bo’lgan qiymatlar bo’lishi mumkin. Bu qiymatlar ishlatilayotgan o’zgaruvchilarda hosil bo’lishi mumkin. Bunday hollardan ig’ bo’lish maqsadida **Const** operatorida quyidagicha o’zgartirish kiritiladi:

Const

R: Real =1.523;

I: integer = -10;

Done: Boolean = true;

Bu o’zgartirish natijasida ishlatilayotgan o’zgarmaslar kerakli boshlang’ich qiymatga ega bo’lgan murakkab o’zgaruvchilarga aylanib qoladi. Umuman olganda murakkab o’zgaruvchilar yordamida bitta identifikator yordamida bir necha o’zgaruvchilarni e’lon qilish mumkin. O’zgaruvchilarning bunday ko’rinishlariga **massivlar** deb nom beriladi. Masalan, ko’pincha

$b = \{b_1, b_2, b_3, \dots, b_n\}$; kabi vektor va matritsalar bilan ish ko’riladi. Yuqorida keltirilgan o’zgaruvchilarda **a**, **b** identifikatorlari yordamida matritsa yoki vektor elementlari berilishi zarur bo’ladi. Bu vazifani bajarish uchun TURBO Paskal tilida massiv tushunchasi kiritiladi. Masalan, yuqoridagi o’zgaruvchilar quyidagicha e’lon qilinadi:

Const

n=25;

Var

b: array[1..n] of real;

a: array [1..n, 1..n] of real;

Massivlarni e'lon qilish jarayonida ko'rinish turibdiki, bir xil yozuvlar qaytarilishi uchramoqda. Bu qiyinchiliklardan ig' bo'lish maqsadida Paskal tilida o'zgaruvchilarning turi degan tushuncha kiritiladi:

```
Type
Vec=array[l..n] of real;
Mat=array[l..n,l..m] of char;
Var
a,b: vec;
x,y,z:mat;
```

O'zgaruvchilarning turi yordamida foydalanuvchi o'zi ham mustaqil ravishda yangi o'zgaruvchilar turini kiritishi mumkin.

Massivli hisoblash jarayonlarini dasturlashga oid misol keltiramiz.

1– Misol. $A = \begin{pmatrix} 4 & 3 & 1 \\ 3 & 2 & 5 \\ 2 & 3 & 4 \end{pmatrix}$ berilgan bo'lsa, $B = \begin{pmatrix} b_1 \\ b_2 \\ b_3 \end{pmatrix}$ ni aniqlang.

Bu yerda $b_i = \sum_{j=1}^3 A_{i,j}$, $i = 1,2,3$.

dasturi:

```
type
  matrix=array[1..3,1..3] of integer;
  vektor=array[1..3] of integer;
var
  a:matrix;
  b:vektor;
  i,j:integer;
begin
  a[1,1]:=4; a[1,2]:=3; a[1,3]:=1;
  a[2,1]:=3; a[2,2]:=2; a[2,3]:=5;
  a[3,1]:=2; a[3,2]:=3; a[3,3]:=4;
  i:=1 to 3 do
    begin
      j:=1 to 3 do
        b[i]:=b[i]+a[i,j];
        writeln('b[' ,i, ',']=',b[i]);
    end;
  readln
end.
```

NATIJA:
b[1]=8
b[2]=10
b[3]=9

A matritsaning elementlari ixtiyoriy bo''lgan hol uchun dastur:

```
type
```

```

matrix=array[1..3,1..3] of integer;
vektor=array[1..3] of integer;
var
  a:matrix;
  b:vektor;
  i,j:integer;
begin
  i:=1 to 3 do
    j:=1 to 3 do
      begin
        write('a[',i,',',',',j,',']=');
        readln(a[i,j]);
      end;
  i:=1 to 3 do
  begin
    j:=1 to 3 do
      b[i]:=b[i]+a[i,j];
    writeln('b[',i,',']=',b[i]);
  end;
  readln
end.

```

Foydalanuvchi tomonidan kiritiladl.			
1 – qo'llash	a[1,1]:=4	a[1,2]:=3	a[1,3]:=1
	a[2,1]:=3	a[2,2]:=2	a[2,3]:=5
	a[3,1]:=2	a[3,2]:=3	a[3,3]:=4
	NATIJA:		
	b[1]=8	b[2]=10	b[3]=9
Foydalanuvchi tomonidan kiritiladl.			
2 – qo'llash	a[1,1]:=2	a[1,2]:=6	a[1,3]:=2
	a[2,1]:=3	A[2,2]:=2	a[2,3]:=6
	a[3,1]:=3	a[3,2]:=6	a[3,3]:=3
	NATIJA:		
	b[1]=10	b[2]=11	b[3]=12
Foydalanuvchi tomonidan kiritiladl.			
3 – qo'llash	a[1,1]:=2	a[1,2]:=6	a[1,3]:=5
	a[2,1]:=3	A[2,2]:=1	a[2,3]:=9
	a[3,1]:=0	a[3,2]:=10	a[3,3]:=3
	NATIJA:		
	b[1]=13	b[2]=13	b[3]=13

2– Misol. $A = \begin{pmatrix} 4 & 3 & 1 \\ 3 & 2 & 5 \\ 2 & 3 & 4 \end{pmatrix}$ matritsa berilgan. Uning normasini toping.

Matritsa normasi ta'rifi bo'yicha $c = \sqrt{\sum_{i=1}^3 \sum_{j=1}^3 a_{i,j}^2}$ ga teng.

Dasturi:

```
type
    matrix=array[1..3,1..3] of integer;
    vektor=array[1..3] of integer;
var
    a:matrix;
    b:vektor;
    i,j:integer;
    c:real;
begin
a[1,1]:=4; a[1,2]:=3; a[1,3]:=1;
a[2,1]:=3; a[2,2]:=2; a[2,3]:=5;
a[3,1]:=2; a[3,2]:=3; a[3,3]:=4;
    i:=1 to 3 do
begin
    j:=1 to 3 do
        b[i]:=b[i]+sqr(a[i,j]);
        c:=c+b[i];
    end;
writeln('c=' ,sqrt(c):1:15);
readln
end.
```

NATIJA:
9.64365076100

A matritsaning elementlari ixtiyoriy bo'lgan hol uchun dastur:

```
type
    matrix=array[1..3,1..3] of integer;
    vektor=array[1..3] of integer;
var
    a:matrix;
    b:vektor;
    i,j:integer;
    c:real;
begin
    i:=1 to 3 do
        j:=1 to 3 do
begin
    write('a[' ,i,' ,',j,']=');
    readln(a[i,j]);
end;
    i:=1 to 3 do
begin
    j:=1 to 3 do
        b[i]:=b[i]+sqr(a[i,j]);
```

```

c:=c+b[i];
end;
writeln('c=' ,sqrt(c):1:15);
readln
end.

```

Foydalanuvchi tomonidan kiritiladl.			
1 – qo'llash	a[1,1]:=4	a[1,2]:=3	a[1,3]:=1
	a[2,1]:=3	a[2,2]:=2	a[2,3]:=5
	a[3,1]:=2	a[3,2]:=3	a[3,3]:=4
NATIJA:			
9.64365076100			
Foydalanuvchi tomonidan kiritiladl.			
2 – qo'llash	a[1,1]:=2	a[1,2]:=6	a[1,3]:=2
	a[2,1]:=3	A[2,2]:=2	a[2,3]:=6
	a[3,1]:=3	a[3,2]:=6	a[3,3]:=3
NATIJA:			
12.12435565300			
Foydalanuvchi tomonidan kiritiladl.			
3 – qo'llash	a[1,1]:=2	a[1,2]:=6	a[1,3]:=5
	a[2,1]:=3	A[2,2]:=1	a[2,3]:=9
	a[3,1]:=0	a[3,2]:=10	a[3,3]:=3
NATIJA:			
16.27882059600			

Topshiriqlar:

1. A vektorning elemetlari $a_i = i$, $i = 1, 2, 3, \dots, 1000$ ko'rinishda aniqlash dasturi tuzilsin.
2. A vektorning elemetlari $a_i = \sqrt{i}$, $i = 1, 2, 3, \dots, 256$ ko'rinishda aniqlash dasturi tuzilsin.
3. A vektorning elemetlari $a_i = i^2$, $i = 1, 2, 3, \dots, 100$ ko'rinishda aniqlash dasturi tuzilsin.
4. A vektorning elemetlari $a_i = \frac{i}{i+1}$, $i = 0, 1, 2, 3, \dots, 5$ ko'rinishda aniqlash dasturi tuzilsin.
5. A vektorning elemetlari $a_i = \ln(i)$, $i = 1, 2, 3, \dots, 10$ ko'rinishda aniqlash dasturi tuzilsin.
6. A vektorning elemetlari $a_i = 1 - \frac{1}{(i+1)^2}$, $i = 1, 2, 3, \dots, 6$ ko'rinishda aniqlash dasturi tuzilsin.
7. A vektorning elemetlari $a_i = \frac{1}{i^2}$, $i = 0.1, 0.2, 0.3, \dots, 1$, ko'rinishda aniqlash dasturi tuzilsin.
8. A vektorning elemetlari $a_i = \frac{k}{i}$, $i = 1, 2, 3, \dots, 10$, $k = 10$ ko'rinishda aniqlash dasturi tuzilsin.

tuzilsin.

9. A vektorning elemetlari $a_i = \ln(i + j)$, $i = 1, 2, 3, \dots, 9$, $j = 3$ ko'inishda aniqlash dasturi tuzilsin.

10. A vektorning elemetlari $a_i = \sqrt{\frac{i}{n}}$, $i = 1, 2, 3, \dots, n$, $n = 25$ ko'inishda aniqlash dasturi tuzilsin.

11. A vektorning elemetlari $a_i = \frac{\ln(i)}{\sqrt{i}}$, $i = 1, 2, 3, \dots, 10$ ko'inishda aniqlash dasturi tuzilsin.

12. A vektorning elemetlari $a_i = a_{i-1} + \pi$, $i = 2, 3, 4, \dots, 70$, $a_1 = 0$ ko'inishda aniqlash dasturi tuzilsin.

13. A vektorning elemetlari $a_i = e^i$, $i = 0, 1, 2, 3$ ko'inishda aniqlash dasturi tuzilsin.

14. A vektorning elemetlari $a_i = \sqrt[n]{i}$, $i = 1, 2, 3, \dots, n$, $n = 99$ ko'inishda aniqlash dasturi tuzilsin.

15. A vektorning elemetlari $a_i = \cos(\pi i)$, $i = 1, 2, 3, \dots, 102$ ko'inishda aniqlash dasturi tuzilsin.

Topshiriqni bajarish namunasi:

A matritsaning elemetlari $a_{i,j} = \frac{\cos(i)}{j}$, $i, j = 1, 2, 3, \dots, 102$ ko'inishda aniqlash dasturi tuzilsin.

Dasturi:

```
var
a:array[1..102,1..102] of real;
i,j:integer;
begin
for i:=1 to 5 do
begin
  for j:=1 to 5 do
  begin
    a[i,j]:=cos(i)/j;
    write(a[i,j]:0:1,' ');
  end;
  writeln;
end;
end.
```

7–Mashg’ulot

Qism dasturlar va ularning turlari. Prosedura – funksiyalar.

Prosedura – dasturlar.

Maqsad: Paskal tilida Qism dasturlar va ularning turlarini, Prosedura – funksiyalarni, Prosedura – dasturlarni yozilishi va ularning qo’llanishini o’rganish, ushbu amallarni bajarish bo'yicha ko'nikma hosil qilish.

Nazariy material:

Eng oddiy qism dasturlar sifatida kompyuter xotirasiga kiritilgan elementar funksiyalar uchun tuzilgan dasturlarni qarash mumkin. Xuddi shu singari dasturda juda ko’p marta murojaat qilinuvchi ixtiyoriy murakkab ifodalarni hisoblashni alohida nomlab asosiy dasturning e’lonlar bo’limiga o’tkazish orqali qism dasturlar hosil qilinishi mumkin. E’lon qilish quyidagicha:

Procedure Ism;

Bu qism dasturlar protsedura–operatorlar deb ataladi va parametrlarga ega bo’lmaydi va asosiy dasturda faqat ismi bilan ishtirok etadi.

Misol–1. Faraz qilaylik, monitor ekranida yulduzlarni hosil qilish zarur bo’lsin. U holda

```
Procedure start;
    var
        i :byte;
    begin
        i:=1 to 55 do
            write('•');
        end;
    begin
        start;
    end.
```

NATIJA:

```
.....
```

Misol–2. Elementlar $a_{i,j} = i + j$, $i, j = 1, 2, 3, 4, 5$. matritsani aniqlash dasturi.

```
Procedure matrix;
var
    a:array[1..10,1..10] of byte;
    i, j:byte;
begin
    i:=1 to 5 do
begin
    j:=1 to 5 do
begin
        a[i,j]:=random(10);
        write(a[i,j]:3);
    end;
    writeln;
end;
end;
```

```

begin
    writeln('1- matritsa':3); matrix; readln;
    writeln('2- matritsa':3); matrix; readln
end.

```

NATIJA:
1- matritsa
0 2 5 9 0
2 6 8 7 9
1 5 8 6 7
2 4 9 6 5
0 2 6 4 8
2- matritsa
2 3 5 7 8
3 4 8 0 9
0 1 5 7 8
3 4 6 8 5
2 4 6 7 0

PROTEDURA–FUNKSIYALAR.

Yuqorida keltirilgan dasturdan ko'rinish turibdiki, prosedura–operatorlarga kerakli marta murojaat qilish mumkin. Lekin ularning qo'lianilishi o'zgarmas va ba'zi hollarda noqulaylikka olib kelishi mumkin. Bunday hollarda protsedura–funksiyalardan foydalilanildi. Ularning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

```
Function({Parametrlar ro'yxati} ): {protsedura qiymatining turi};
```

Misol–1. Berilgan ikkita vektor elementlari kichik va eng katta qiymatlarini aniqlash dasturini tuzamiz.

Dastur:

```

type vek=array[1..100] of byte;
var
n,i,j:integer;
a,b:vek;
ma,mb,ma1,mb1:integer;
function min(a:vek; n:integer):integer;
var
i:integer;
begin
min:=0;
for i:=1 to n do
    if a[i]>min then
        min:=a[i];
end;
function max(a:vek; n:integer):integer;
var
i:integer;
begin

```

```

max:=0;
    for i:=1 to n do
        if a[i]>max then
            max:=a[i]
    end;
begin
read(n);
i:=1 to n do
begin
    write('a[ ',i,' ]=' );
    readln(a[i]);
end;
i:=1 to n do
begin
    write('b[ ',i,' ]=' );
    readln(b[i]);
end;
ma:=min(a,n);
ma1:=max(a,n);
mb:=min(b,n);
mb1:=max(b,n);
writeln('a ning min=',ma,' max=',ma);
writeln('b ning min=',mb,' max=',mb);
end.

```

	Foydalanuvchi kiritishi lozim	Kompyuter ekranida
1- qo'llash	N=3, a[1]=2, a[2]=5, a[3]=4, b[1]=3, b[2]=4, b[3]=5,	a ning min=2 max=5 b ning min=3 max=5
2- qo'llash	N=4, a[1]=2, a[2]=5, a[3]=7, a[4]=9, b[1]=3, b[2]=4, b[3]=5, b[4]=4	a ning min=2 max=9 b ning min=3 max=5
3- qo'llash	N=2, a[1]=11, a[2]=6, b[1]=1, b[2]=14	a ning min=6 max=11 b ning min=1 max=14

Bu dasturning asosiy qismida e'lon qilingan o'zgaruvchilar umumiy, protseduraning ichida e'lon qilingan o'zgaruvchilar xususiy deb nomlanadi va faqat protseduraning ichida faoliyat ko'rsatadi.

Misol-2. Quyidagi funksiyalar qiymatini hisoblash kerak bo'lsin.

$$S = \sqrt{a^2 + b^2 + \cos(ab)} + b^2 + c^2 + \cos(cb), \quad F = \frac{b^2 + c^2 + \cos(cb)}{|d^2 + 3^2 + \cos(3d)|},$$

$$G = \ln(n^2 + m^2 + \cos(nm)).$$

Berilgan topshiriqning hisoblash jarayoniga mos dasturni keltiramiz. Bunda a,b,c,d,n,m lar o'zgarmaslar.

Dasturi:

```
function func(a,b:real):real;
```

```

var
begin
func:=sqr(a)+sqr(b)+cos(a•b);
end;

var
s,f,g:real;
a,b,c,d,n,m:real;
begin
write('a='); readln(a);
write('b='); readln(b);
write('c='); readln(c);
write('d='); readln(d);
write('n='); readln(n);
write('m='); readln(m);
s:=sqrt(func(a,b))+func(b,c);
writeln('S=',s:1:3);
f:=func(b,c)/abs(func(d,3));
writeln('F=',f:1:3);
g:=ln(func(n,m));
writeln('g=',g:1:3);
end.

```

	Foydalanuvchi kiritishi lozim	Kompyuter ekranida
1- qo'llash	a=1, b=3, c=4, d=5, n=6, m=4	S=28.846 F=0.777 G=3.959
2- qo'llash	a=2, b=6, c=2.1, d=3.2, n=5, m=6.2	S=47.800 F=2.268 G=4.164
3- qo'llash	a=2, b=3.6, c=0, d=5, n=2, m=2	S=18.151 F=0.420 G=1.994

Misol-3: Quyidagi funksiyalar qiymatini hisoblash kerak bo'lsin. $S = f(x) + \frac{g(x)}{2}$,

$$F = \frac{f(x)}{|g(x) - f(x)|} + s(x). \text{ Berilgan topshiriqning hisoblash jarayoniga mos dasturni}$$

keltiramiz. Bunda $f(x) = x^2$, $g(x) = \sqrt{x}$, $s(x) = x + 1$.

Dasturi:

```

function f(x:real):real;
begin
f:=sqr(x);
end;
function g(x:real):real;
begin
g:=sqrt(x);

```

```

    end;
function s(x:real):real;
begin
  s:=x+1;
end;
var
  a:real;
  f1,s1:real;
begin
  write('x=');
  readln(a);
  f1:=f(a)/(abs(g(a)-f(a)))+ s(a);
  s1:=f(a)+(g(a)/2);
  writeln('S=',s1:1:3);
  writeln('F=',f1:1:3);
end.

```

	Foydalanuvchi kiritishi lozim	Kompyuter ekranida
1- qo'llash	X=0.2	S=0.264 , F=1.298
2- qo'llash	X=5.2	S=28.180 , F=7.292
3- qo'llash	X=12.2	S=150.586 , F=14.224

PROTSEDURA–DASTURLAR.

Qism dasturlar ichida imkoniyati jihatidan ancha samarali hisoblanadigani protsedura–dasturlardir.

Procedure Ism ({kir. Param.};var { chiq. Param.});

Bu qism dasturda kirish va chiqish parametrlar miqdoriga muayyan chegara qo'yilmaydi. Protsedura–dasturlar yordamida masalani dasturlash ancha qulay bo'ladi.

Misol–1. Berilgan ikkita vektor elementlari kichik va eng katta qiymatlarini aniqlash algoritmi va dasturini tuzamiz.

Dasturi:

```

type
  vek=array[1..100] of real;
  procedure min_maxa(a:vek; n:integer; var
max,min:real);
var
  i:integer;
begin
  max:=a[1];
  min:=a[1];
  i:=2 to n do
  begin
    if a[i]>max then max:=a[i];
    if a[i]<min then min:=a[i];
  end;

```

```

end;
procedure min_maxb(a:vek; n:integer; var
max,min:real);
var
    i:integer;
begin
    max:=a[1];
    min:=a[1];
    i:=2 to n do
begin
    if a[i]>max then max:=a[i];
    if a[i]<min then min:=a[i];
end;
end;
var
    n,i:integer;
    a,b:vek;
    max,min:real;
begin
    write('n=');
    read(n);
    i:=1 to n do
begin
    write('a[',i,']=');
    readln(a[i]);
end;
    i:=1 to n do
begin
    write('b[',i,']=');
    readln(b[i]);
end;
min_maxa(a,n,max,min);
writeln('max_a=',max,' min_a=',min);
min_maxb(b,n,max,min);
writeln('max_b=',max,' min_b=',min);
end.

```

	Foydalanuvchi kiritishi lozim	Kompyuter ekranida
1- qo'llash	N=3, a[1]=2, a[2]=5, a[3]=4, b[1]=3, b[2]=4, b[3]=5,	max_a=5 min_a=2 max_b=5 min_b=3
2- qo'llash	N=4, a[1]=2, a[2]=5, a[3]=7, a[4]=9, b[1]=3, b[2]=4, b[3]=5, b[4]=4	max_a=9 min_a=2 max_b=5 min_b=3
3- qo'llash	N=2, a[1]=11, a[2]=6, b[1]=1, b[2]=14	max_a=11 min_a=6 max_b=14 min_b=1

Misol-2. $y = \cos(x) + \sqrt{1.5x + x^2}$ funksiyaning qiymatini $0 < x < 1$ oraliqda $\Delta x=0.1$ qadam bilan, $2 < x < 4$ oraliqda $\Delta x =0.2$ qadam bilan, $0 < x < 10$ oraliqda $\Delta x=1$ qadam bilan hisoblovchi dasturni keltiramiz.

Dasturi:

```

procedure fy(x:real);
var
    y:real;
begin
    y:=cos(x)+sqrt((1.5•x)+sqr(x));
    writeln('y( ',x,' )=',y:1:3);
end;
procedure step(a,b,h:real);
var
    i:real;
begin
    i:=a;
    repeat
        fy(i);
        i:=i+h;
    until i-h>b;
    end;      begin
        step(0,2,0.1); writeln('1 funksiya qiymati
tugadi');
        step(2,4,0.2); writeln('2 funksiya qiymati
tugadi');
        step(0,10,1); writeln('3 funksiya qiymati
tugadi');   end.

```

NATIJA:
$y(0.0)=1.000, y(0.1)=1.395, y(0.2)=1.563, y(0.3)=1.690,$ $y(0.4)=1.793, y(0.5)=1.878, y(0.6)=1.948, y(0.7)=2.006,$ $y(0.8)=2.053, y(0.9)=2.091, y(1.0)=2.121, y(1.1)=2.145,$ $y(1.2)=2.162, y(1.3)=2.175, y(1.4)=2.185, y(1.5)=2.192,$ $y(1.6)=2.198, y(1.7)=2.204, y(1.8)=2.210, y(1.9)=2.218,$ $y(2.0)=2.230.$
1 funksiya qiymati tugadi
$y(2.0)=2.230, y(2.2)=2.265, y(2.4)=2.322, y(2.6)=2.408,$ $y(2.8)=2.528, y(3.0)=2.684, y(3.2)=2.880, y(3.4)=3.115,$ $y(3.6)=3.388, y(3.8)=3.697, y(4.0)=4.037.$
2 funksiya qiymati tugadi
$y(0.0)=1.000, y(1.0)=2.121, y(2.0)=2.230, y(3.0)=2.684,$ $y(4.0)=4.037, y(5.0)=5.985, y(6.0)=7.668, y(7.0)=8.468,$ $y(8.0)=8.572, y(9.0)=8.810, y(10.0)=9.885,$ $y(11.0)=11.730.$
3 funksiya qiymati tugadi

Misol-2 uchun ixtiyoriy $a < x < b$ oraliqda Δx qadam bilan hisoblash dasturini keltiramiz:

```

procedure fy(x:real);
var
    y:real;
begin
    y:=cos(x)+sqrt((1.5*x)+sqr(x));
    writeln('y( ',x:1:1,' )=',y:1:3);
end;
procedure step(a,b,h:real);
var
    i:real;
begin
    i:=a;
    repeat
        fy(i);
        i:=i+h;
    until i>b;
end;
var
a,b,h:real;
begin
    write('quyi chegarani kirit(a):');
    readln(a);
    write('yuqori chegarani kirit(b):');
    readln(b);
    write('qadamni kirit(h):');
    readln(h);
    step(a,b,h);
    writeln(a,'<x<',b,' oraliqda ',h,' qadam bilan y
    funksiya qiymati hisoblandi'); end.

```

	Foydalanuvchi kiritishi lozim	Kompyuter ekranida
1- qo'llash	a=0 , b=1 h=0.2	$y(0.0)=1.000$ $y(0.2)=1.563$ $y(0.4)=1.793$ $y(0.6)=1.948$ $y(0.8)=2.053$ $y(1.0)=2.121$ 0.0 < x < 1.0 oraliqda 0.20 qadam bilan y funksiya qiymati hisoblandi

2- qo'llash	$a=0, b=1, h=0.5$	$y(0.0)=1.000$ $y(0.5)=1.878$ $y(1.0)=2.121$ $0.0 < x < 1.0$ oraliqda 0.5 qadam bilan y funksiya qiymati hisoblandi
3- qo'llash	$a=0, b=30, h=3$	$y(0.0)=1.000$ $y(3.0)=2.684$ $y(6.0)=7.668$ $y(9.0)=8.810$ $y(12.0)=13.572$ $y(15.0)=14.972$ $y(18.0)=19.395$ $y(21.0)=21.189$ $y(24.0)=25.163$ $y(27.0)=27.448$ $y(30.0)=30.895$ 0.0 < x < 30.0 oraliqda 3.0 qadam bilan y funksiya qiymati hisoblandi

Shunday qilib, keng o'quvchi ommasi foydalanayotgan har qanday algoritmlar qism dasturlar yordamida, kompyuter xotirasida foydalanuvchilar uchun eng qulay ko'rinishda saqlab qo'yilib Turbo paskal kutubxonasini tashkil etish mumkin bo'ladi. Kutubxonada dasturlar ishlatalishi turiga qarab modullarga bo'linadi.

Topshiriqlar:

1. $A = \begin{pmatrix} 23 & 4 & 2 \\ 1 & 2 & 6 \\ 1 & 8 & 2 \end{pmatrix}$ ning eng katta va eng kichik elementini topish dasturini tuzing.

Bunnda protsedura– operatordan foydalaning.

2. $a = \begin{pmatrix} 5 \\ 6 \\ 7 \end{pmatrix}, \quad b = \begin{pmatrix} 6 \\ 2 \\ 3 \end{pmatrix}, \quad c = a \cdot b.$ c ning eng katta va eng kichik elementini topish dasturini tuzing. Bunnda protsedura– operatordan foydalaning.

3. $a = \begin{pmatrix} 8 \\ 2.1 \\ 0.5 \end{pmatrix}, \quad b = \begin{pmatrix} 5 \\ 0.22 \\ 30 \end{pmatrix}, \quad c_i = \sqrt{a_i} + (b_i)^2, \quad i = 1, 2, 3.$ c ning eng katta va eng kichik elementini topish dasturini tuzing. Bunnda protsedura– operatordan foydalaning.

elementini topish dasturini tuzing. Bunnda protsedura– operatordan foydalaning.

4. $a = \begin{pmatrix} 5 & 6 & 8 \\ 4 & 0.1 & 36 \\ 25 & 14 & 15 \end{pmatrix}$ ning ustun elementlarining yig'indisini hisolab b massivga yozish dasturini tuzing. Bunda protsedura– funksiyadan foydalaning.
5. $a = \begin{pmatrix} 5 & 6 & 8 \\ 4 & 0.1 & 36 \\ 25 & 14 & 15 \end{pmatrix}$ ning qator elementlarining yig'indisini hisolab b massivga yozish dasturini tuzing. Bunnda protsedura– funksiyadan foydalaning.
6. $a = \begin{pmatrix} 2 & 6.1 & 5 \\ -2 & 0.2 & 3 \\ 6 & 4 & 2 \end{pmatrix}$ ning elementlar yig'indisini hisolab beruvchi dasturni tuzing. Bunda protsedura– funksiyadan foydalaning.
7. $a = \begin{pmatrix} 2 & 5.3 & 9 \\ 2 & 10 & 6 \\ 1 & 1 & 2 \end{pmatrix}$ ning elementlar ko'paytmasini hisolab beruvchi dasturni tuzing. Bunda protsedura– funksiyadan foydalaning.
8. $y = \cos(x)$ funksiyaning qiymatini $0 < x < 1$ oraliqda $\Delta x = 0.1$ qadam bilan hisoblovchi dasturni tuzing. Bunnda protsedura– dasturdan foydalaning.
9. $a = \begin{pmatrix} -2 & 5.3 & 9 \\ 2 & -10 & 6 \\ -1 & 1 & 2 \end{pmatrix}$ ning elementlari orasidan eng katta va eng kichik manfiy elementni topuvchi dasturni tuzing. Bunnda protsedura– dasturdan foydalaning.
10. $a = \begin{pmatrix} 1.2 & 5 & 1 \\ 12 & 11 & -5 \\ 1 & 4 & 6 \end{pmatrix}$ ning ustun elementlar yig'indisini b massivga yozish va b massivning eng katta elementni topuvchi dasturni tuzing. Bunnda protsedura– dasturdan foydalaning.
11. $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 4 \\ 1.5 & 3 & 9 \\ 3.5 & 2.5 & 0.2 \end{pmatrix}$ ning eng katta va eng kichik elementlar yig'indisini topish dasturini tuzing. Bunda protsedura– operatordan foydalaning.
12. $a = \begin{pmatrix} -9 \\ 0 \\ 3 \end{pmatrix}, \quad b = \begin{pmatrix} 3 \\ 2 \\ 1.2 \end{pmatrix}, \quad c = |a| \cdot |b|$. c ning eng katta va eng kichik elementini topsh dasturini tuzing. Bunda protsedura– operatordan foydalaning.
13. $a = \begin{pmatrix} 45 \\ 2.21 \\ 0.51 \end{pmatrix}, \quad b = \begin{pmatrix} 0.25 \\ 5 \\ 30 \end{pmatrix}, \quad c_i = b_i^{\sqrt{a_i}}, \quad i = 1, 2, 3$. c ning eng katta va eng kichik

elementlari ko'paytmasini topish dasturini tuzing. Bunda protsedura–operatorordan foydalaning.

$$14. a = \begin{pmatrix} 5.0 & 6 & 8.6 \\ 43.2 & 0.1 & 3.6 \\ 2.5 & 1.4 & 1.5 \end{pmatrix}$$

ning uctun elementlari yig'indisini hisolab b massivga yozish dasturini tuzing. Bunda protsedura– funksiyadan foydalaning.

$$15. a = \begin{pmatrix} 5.3 & 6 & 8.45 \\ 4.5 & 0.1 & 360 \\ 25.3 & 14 & 150 \end{pmatrix}$$

ning qator elementlari yig'indisini hisolab b massivga yozish dasturini tuzing. Bunda protsedura– funksiyadan foydalaning.

Topshiriqni bajarish namunasi:

$$a = \begin{pmatrix} 0.2 & 6.01 & 5.6 \\ -2.3 & 0.02 & 3.1 \\ -60.2 & 0.044 & 4.2 \end{pmatrix}$$

ning elementlar yig'indisini hisolab beruvchi dasturini tuzing. Bunda protsedura– funksiyadan foydalaning.

Dasturi:

```

type matrix=array[1..10,1..10] of real;
function Sum(a:matrix):real;
var
  i,j:integer;
  s:real;
begin
  s:=0;
  for i:=1 to 5 do
    for j:=1 to 5 do
      s:=s+a[i,j];
    sum:=s;
  end;

  var
  a:matrix;
  i,j:integer;
  b:real;
begin
  for i:=1 to 5 do
    for j:=1 to 5 do
      read(a[i,j]);
      writeln(sum(a));
  end.

```

8–Mashg’ulot.

Paskalning grafik imkoniyati. Tasvirli matnlar bilan ishlash.

Maqsad: Paskal tilida Paskalning grafik imkoniyatini, Tasvirli matnlar bilan ishlashni yozilishi va ularning qo’llanishini o’rganish, ushbu amallarni bajarish bo’yicha ko’nikma hosil qilish.

Nazariy material:

Kompyuter ekranida matn holatida 80 ta belgili 25 ta qator joylashadi. Qaralayotgan rejimda har xil menyular hosil qilish va dinamik bilan ishlash uchun Turbo paskal kutubxonasiidagi moduliga tegishli funksiya va protseduralardan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi:

Clrscl – Ekranni tozalaydi va kursorni ekranning yuqori chap burchagiga joylashtiradi. Masalan,

```
USES crt;
begin
  clrscr;
  write('toza ekran');
end.
```

TextColor(color) – Matnning rangini aniqlaydi. Turbo paskalda ranglar raqamlar va ranglarning inglizcha nomi bilan beriladi. Hammasi bo’lib 16 xil rangni tanlash imkoniyati bor. Quyidagi dastur yordamida ranglarni bilish mumkin.

Dastur:

```
uses crt;
var
  i:integer;
begin
  clrscr;
  i:=0 to 15 do
  begin
    textcolor(i);
    writeln('Rang nomi');
  end;
end.
```

Textbackground(color) – Ekranda hosil bo’luvchi rangni aniqiaydi.

Dastur:

```
uses crt;
begin
  textbackground(15);
  write('Turbo');
  readln;
end.
```

Gotoxy(i,j) – Ekrandagi i qator va j ustundagi nuqtaga kursorni olib kelibjoylashtiradi.

Dastur:

```
uses crt;
begin
```

```

gotoxy(25,25)
textbackground(15);
write('Turbo');
readln;
end.

```

Write(s) – Kursor turgan joydan boshlab matnni ekranga chiqaradi.

Insline – Kursor turgan qatorni belgilardan bo'shatadi.

Clreol – Kursor turgan qatorni o'chiradi.

Delay(n) – Dastur bajarilishini n millisekundda to'xtatib turadi.

Sound (m) – Dinamikni oldindan berilgan m chastotada ishlashini ta'minlaydi.

Window(xl,yl,x2,y2) – Kompyuter ekranida matn uchun oyna hosil qiladi. Bu yerda xl, yl— oynaning yuqori chap burchagi koordinatalari, x2, y2— o'ng past burchagi koordinatalari. Quyidagi dastur ekranda matn uchun oyna hosil qilish usullaridan birini aniqlaydi.

TASVIRLARNI HOSIL QILISH (GRAPH MODULI).

Ekranda tasvirlarni hosil qilish uchun grafik rejimiga o'tish zarur bo'ladi. Bu rejimda matn rejimidan farqli ekran rang-barang nuqtalar – piksellar to'plamidan tashkil topgan to'rtburcbakdan iborat bo'ladi. Ekranning holatini adapterlar belgilaydi va ular bir-biridan ekranga mumkin qadar ko'p nuqtalar joylashtira olish va rang-baranglikni oshirish imkoniyati bilan farqlanadi. Hozirgi paytga kelib, imkoniyati jihatidan afzalligi bilan ajralib turuvchi SVGA (Super Video Graphics Adapter) adapteri kompyuter ekranida (400x800 nuqtani 256 xil rangda hosil qilishi mumkin. Kompyuter odatda matn rejimida ishlaydi. ekranni grafik rejimiga o'tkazish uchun quyidagi funksiyadan foydalaniladi:

Initgraph (GD,GM,Path);

Bu erda GD – drayver nomeri, GM—rejim nomeri, Path—drayverniga saqlab turuvchi faylga o'tish yo'li. Agar Path o'rnida ‘ belgi turgan bo'lsa, drayver joriy katalogdan axtariladi. Agar 0 ga teng bo'lsa, bu drayver uchun grafik rejimni eng maqbul varianti kompyuter tomonidan avtomatik ravishda tanlanadi. Ba'zan 0 o'rnida **Detect** konstantasi ham ishlatiladi. Grafik rejimdan chiqish uchun **Closegraph** funksiyasi ishlatiladi. Ekranda nuqta va turli xil chiziqlarni hosil qilish uchun quyidagi funksiyalar ishlatiladi.

Putpixel (X,Y,color) – ekranda X,Y koordinatali nuqtani color rangida hosil qiladi. Masalan, 600x 800 o'lchamda qizil rangli nuqtalar hosil qilish.

Dasturi:

```

uses Crt, Graph;
var
  Gd, Gm: Integer;
begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then halt(100);
  repeat
    PutPixel(Random(600), Random(900), 12);
    delay(50)
  until keypressed;
end.

```

```


        until KeyPressed;
        ReadLn;
        CloseGraph;
    end.

```


Getpixcel(x,y) – ekrandagi x,y koordinatali nuqta rangining raqamini aniqlaydi.

SetColor(color) – chiziqlarning rangini belgilaydi. Color ga – 0 dan 15 gacha qiymat berilib, 16 xil rangni hosil qiiadi. 0 –Black (qora), 15 –White (oq), ya’ni raqamlarning o’rniga ranglarning inglizcha nomlari ham yozilishi mumkin.


Line(x1,y1,x2,y2) – x1,y1 nuqtadan x2,y2 nuqtagacha kesma hosil qiladi:



Circle(x,y,R) – x,y markazga ega va r radiusli aylanani chizadi.




Rectangle(xl,yl,x2,y2) – xl ,1y yuqori chap va x2,y2 pastki o’ng uchlarga ega bo’lgan to’rtburchakni chizadi.



Arc(x,y,Stang,Endang,Radius) – yoy chizadi. x,y mos aylana markazi. Stang va endang yoy burchaklarining boshlang’ich va oxirgi qiymatlari. Radius aylana radiusi.

DrawPoly(NumPointes,PolyPointes) – ko’pburchakni chizadi. numPointes – ko’pburchak uchlari soni. PolyPointes – ko’pburchak uchlari koordinatalari berilgan massiv.



Grafik rejimida ekranning eni va balandligi bo'yicha nuqtalarning soni adapterning turiga bog'liq bo'lib, turlicha bo'ladi. Gorizontal va vertikal yo'naliish bo'yicha nuqtalar soni uchun o'zgarmaslar **getmaxx** va **getmaxy** kiritilgan.

Misol –1. Ekranni ikki uchburchakka ajratuvchi chiziqning dasturi:

```
uses Crt, Graph;
var
  Gd, Gm: Integer;
begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then halt(100);
  line(0,0,getmaxx,getmaxy);
  Readln;
  CloseGraph;
end.
```

Misol –2. M(100,100) markazli 50 radiusli aylani chizish dasturi:

```
uses Crt, Graph;
var
  Gd, Gm: Integer;
begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then halt(100);
  circle(100,100,50);
  Readln;
  CloseGraph;
end.
```

Misol – 3. a(10,10) yuqori chap va b(100,100) pastki o'ng uchlarga ega bo'lган то'rtburchakni chizish dasturi:

```
uses Crt, Graph;
var
  Gd, Gm: Integer;
begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then halt(100);
  rectangle(10,10,100,100);
  Readln;
  CloseGraph;
end.
```

Misol – 4. a(100,200) mos aylana markazi, 90 va 200 yoy burchaklarining boshlang'ich va oxirgi qiymatlari va 100 radiusli yoy chizish dasturi:

```
uses Crt, Graph;
var
  Gd, Gm: Integer;
```

```

begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then    halt(100);
arc(100,220,90,200,100);
  Readln;
  CloseGraph;
end.

```

Misol – 5. 3 qirrali, uchlar koordinatalari A(X:150; Y:100), B(X:100; Y:100), C(X: 150; Y: 150)) bo’lgan ko’pburchakni chizish dasturi:

```


uses Graph;
const
  Triangle: array[1..4] of PointType = ((X: 150;
  Y: 100), (X: 100; Y:100),(X: 150;
  Y: 150), (X: 150; Y: 100));
var Gd, Gm: Integer;
begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then
    Halt(1);
DrawPoly(4, Triangle);
  Readln;
  CloseGraph; end.

```



SHAKLLAR CHIZISH.

Setcolor(color) fiunksiyasi chiziqlarning rangini belgilagani kabi funksiya **Setiillstyle(Style,Color)** – shakllarni ranglash va to’ldirish usulini belgilaydi. Bu yerda u 0 dan 12 gacha qiymat qabul qilib, to’ldirish usulini belgilaydi.


Bar(xl,yl,x2,y2) – joriy rang va to’idirish usuli bilan to’rtburchak shaklini hosil qiladi.




Bar3D(xl,yl,x2,y2,Depth,Top) – joriy rang va to’ldirish usuli bilan parallelepiped chizadi. Depth o’zgaruvchisi parallelepiped "chuqur"ligini belgilaydi. Mantiqiy Top o’zgaruvchisining rost qiymatida parallelepipedning yuqori yog’on chiziladi, aks holda chizilmaydi.



Fillellipse (x,y, Xradius,Vradius) – ranglangan ellipsni chizadi. Xradius – ellipsning eni, Vradius esa balandligidir.



Fillpoly(Numpointes,PolyPointes) – rangli ko'pburchakni chizadi, Numpointes – ko'pburchak uchlarining soni. PolyPointes – ko'pburchak uchlari koordinatalari berilgan massiv.



Grafik adapterlarning turiga mos ravishda kompyuter ekranida hosil bo'luchchi ranglar soni har xil bo'lishi mumkin. Shu sababli ranglarning umumiy soni uchun **Getmaxcolor** o'zgarmasi kiritilgan.

Misol – 6. M(50,50) yuqori chap va N(200,200) pastkti o'ng burchaklari berilgan, qizil rang bilan bo'yalgan to'rt burchakni chizish dasturi:

```
uses Graph;
var
  Gd, Gm: Integer;
begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then
    Halt(1);
SetFillStyle(11,12);
Bar(50, 50, 200, 200);
  readln;
  CloseGraph;
end.
```

Misol – 7. Rangli, chuqurligi 30ga teng va M(50,50) yuqori chap va N(200,200) pastkti o'ng burchaklari berilgan parallelepiped chizish dasturi:

```
uses Graph;
var
  Gd, Gm: Integer;
begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then
    Halt(1);
SetFillStyle(11,15);
Bar3d(50, 50, 200, 200,30, topOn);
  readln;
  CloseGraph; end.
```

Misol – 8 . Markazi M(200,200) bo’lgan, x koordinatasi bo’yicha 60 va y koordinatasi bo’yicha 20 riadusli ellips chizish dasturi:

```
uses Graph;
var
  Gd, Gm: Integer;
begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then
    Halt(1);
SetFillStyle(11,7);
fillellipse(200, 200, 60,20);
  readln;
  CloseGraph;
end.
```

Misol – 9 . rangli, 3 qirrali va uchlar koordinatalari A(X:150; Y:100), B(X:100; Y:100), C(X: 150; Y: 150)) bo’lgan ko’pburchakni chiziqni dasturi:

```
uses Graph;
const
  Triangle: array[1..4] of PointType = ((X:
    150; Y: 100),(X: 100; Y:100),(X:150; Y: 150),
    (X: 150; Y: 100));
var Gd, Gm: Integer;
begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then
    Halt(1);
fillPoly(4, Triangle);
  Readln;
  CloseGraph;
end.
```

GRAFIK REJIMIDA MATNLAR HOSIL QILISH.

SetTextstyle(Font,Direction,Size) – joriy shriftning o’lchami va yo’nalishini belgilaydi. Font – shrift turini, Direction — matnni chiqarilish yo’nalishi (chapdan o’ngga yoki pastdan yuqoriga). Size — shrift o’lchamini belgilaydi.

SetTextJustify(horiz,vert) – matnni vertikal va gorizontal chiziq bo’yicha tekislash vazifasini bajaradi.

OutTextXY(X,Y,Textstring) – Textstring matnni X, Y koordinatali nuqtadan boshlab yozadi.

Misol– 10. ‘END.’ Matnnini M(50,200) nuqtada 12 o’lchamli qilib yozuvchi dastur:

```
uses Graph;
var
  Gd, Gm: Integer;
  Y, Size: Integer;
```

```

begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then
    Halt(1);
    begin
      SetTextStyle(DefaultFont, HorizDir, 12);
      OutTextXY(50, 200, 'E N D.' );
    end;
  Readln;
  CloseGraph;
end.

```

Misol – 6 . 'T U R B O Paskal' matnini M(200,250) nuqtada yozish dasturi:

```

uses Graph;

var Gd, Gm: Integer;
begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then
    Halt(1);
  OutTextXY( 200,250, 'T U R B O Paskal' );
  Readln;
  CloseGraph;
end.

```

Topshiriqlar:

1. Qizil rangli matn yozish dasturini tuzing.
2. Ekranning (100;100) nuqtasiga ‘O’ZBEKISTON’ yozish dasturini tuzing.
3. Kursorni 100 millisekund to’xtatib turuvchi dastur tuzing.
4. Ekranda matn yozish uchun oyna hosil qilish dasturini tuzing.
5. a(10;20) nuqtadan b(100,200) nuqtagacha kesma hosil qilish dasturini tuzing.
6. M(100;200) markazli 10 raidusli aylana chizish dasturini tuzing.
7. a(10;10) yuqori chap va b(100,500) pastki o’ng uchlarga ega to’rtburchakni hosil qilish dasturini tuzing.
8. M(50;60) markazli, raidusi 60 va burchakning boshlang’ish qiymati 23, oxirgi qiymati 56 bo’lgan yoy hosil qilish dasturini tuzing.
9. 5 burchakli ko’pburchak hosil qilish dasturini tuzing.
10. Rangli 5 burchakli ko’pburchak hosil qilish dasturini tuzing.
11. M(200;200) markazli, x raidusi 20 va raidusi 60 bo’lgan ellips hosil qilish dasturini tuzing.
12. Yashil rangli matn yozish dasturini tuzing.
13. Ekranning (200;100) nuqtasiga ‘O’ZBEKISTON’ yozish dasturini tuzing.
14. Kursorni 500 millisekund to’xtatib turuvchi dastur tuzing.
- 15.a(20;25) nuqtadan b(112,240) nuqtagacha kesma hosil qilish dasturini tuzing.

Topshiriqni bajarish namunasi:

M(200;200) markazli 100 raidusli aylana hosil qilish dasturini tuzing.

Dasturi:

```
uses Crt, Graph;
var
  Gd, Gm: Integer;
begin
  Gd := Detect;
  InitGraph(Gd, Gm, '');
  if GraphResult <> grOk then    halt(100);
circle(200,200,100);
  Readln;
  CloseGraph;
end.
```

9–Mashg’ulot.

Paskalda matnli fayllar bilan ishlash.

Maqsad: Paskal tilida Paskalda matnli fayllar bilan ishlashni yozilishi va ularning qo’llanishini o’rganish, ushbu amallarni bajarish bo’yicha ko’nikma hosil qilish.

Nazariy material:

Faylning tipi massiv tipi bilan o’xhash bo’lib, fayl tipida komponentlar soni ko’rsatilmaydi. Chunki fayl tipida kardinal son mavjud emas. Fayldagi komponentlar soni Eof(f) funksiyasi orqali aniqlanadi (f – file). Funksiya faylning joriy pozitsiyasidan keyin joylashgan komponent mavjud bo’lmasa true qiymat qaytaradi.

Agar f buferli o’zgaruvchi, f faylning oxirigacha borsa, u holda eof (f) mantiqiy funksiya rost qiymatga ega bo’ladi. Boshqa hollarda u false qiymatga ega. Fayllar bilan ishlashda quyidagi protseduralar foydalinadi:

- ✿ **Reset (f)** – faylni o’qish uchun tayyorlaydi; (agar fayl bo’sh bo’lmasa)
- ✿ **Rewrite(f)** – faylni yozish uchun tayyorlaydi. (f – bo’sh faylga o’zgartiriladi)
- ✿ **Read(f,x)** – bo’sh bo’lmagan fayldagi joriy komponentni x – o’zgaruvchiga qiymat sifatida uzatadi
- ✿ **Write (f, x)** – faylning joriy pozitsiyasiga E joylashtiriladi.

Belgili ketma-ketlikdan hosil bo’lgan fayllar matnli fayllar hisoblanadi. Bunda fayl ma’lum uzunlikka ega bo’lgan satrlardan tarkib topadi. Ya’ni,

Text=file of Char.

Writeln(f) – f fayldagi joriy satrni yakunlaydi.

Readln (f) – f fayldagi keyingi satrga o’tadi. (f keyingi satrning birinchi belgisi bo’ladi)

Eoln(f) – satr tugagan yoki tugallanmaganligini aniqlaydi. Agar f satr tugaganligi rost bo’lsa, true bo’ladi.

Turbo pascal versiyalarida fayllar bog’lanishi maxsus ichki qurilgan Assign protsedurasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu protseda ikkita parametrga ega. Birinchi parametr – fayl o’zgaruvchisi, ikkinchisi – fayl nomi. Misol, Assign (f, ‘s: \mydir\myfile.pas’) protseda f fayl o’zgaruvchisi bilan C diskdagi MyDir katalogdagi MyFile.dat fayli bilan bog’lanish hosil qiladi (Kataloglar ichma-ich joylashishi ham mumkin). Kataloglar nomi sakkizta harfdan oshmasligi lozim.

Fayllar ustida amal bajaruvchi protseda – funksiyalar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Protseda (funktsiya)	Amal tavsifi
Append(f,file)	Faylni davomidan qo’shish uchun ochadi.
Assign (f,file)	Faylli o’zgaruvchi bilan tashqi faylni bog’laydi.
Close(f)	Ochilgan faylni yopadi.
Erase()	Tashqi faylni yo’qotadi.
Eof(f)•	end of file qiymatini qaytaradi
Eoln(f)•	end of line qiymatini qaytaradi

FilePos(f)•	Faylning joriy pozitsiyasini qaytaradi
FileSize(f)•	Fayldagi komponentlar sonini qaytaradi.
Flus(f)	Almashtirish buferini tozalaydi.
IoResult(f)•	Amal bajarilish jarayonidagi uchragan xatolik kodini qaytaradi.
Read(f,file)	Fayldan komponent(lar)ni o'qiydi
Readln(f,file)	Read ga o'xshash, faqat buferni yangi satrga joylashtiradi
Reset(f)	Mavjud faylni o'qish uchun ochadi
Rewrite(f)	Faylni yozish uchun ochadi (avvalgisi yo'qotiladi)
Write(f,file)	Faylga komponent(lar)ni qo'shadi
Writeln(f,file)	Write ga o'xshash, faqat end of line alomatini qo'shadi
• belgisi bilan ajratilgan amallar matnli fayllarda aniqlanmagan.	

Kompilyatorning {\$I+} va {\$I-} direktivalari yordamida xatolikni avtomatik tekshirishni boshqarish mumkin. Xatolik kodini ichki qurilgan IoResult funksiyasi orqali aniqlash mumkin. Misol,

```
    .
    .
Assign(f, 'C:\MyFile');
{$I-}
Reset(f);
{$I+}
if IoResult <> 0 then
  Write('Faylni ochishda xatolik')
else
  .
  .
```

Misol– 1. Joriy katalogda joylashgan text.txt nomli fayilga ‘chiqish...’ so’zini yozish dasturi:

```
var f: text;
begin
  Assign(f, 'text.txt');
  Rewrite(f);
  Write('chiqish... ');
  Close(f);
end.
```

Natijani ko’rish uchun joriy katalogdan text.txt nomli faylni ochib ko’ring.

Misol– 2. Joriy katalogda joylashgan text.txt nomli faylning davomiga ‘. text qo’shish’ so’zini yozish dasturi:

```
var f: text;
begin
  Assign(f, 'text.txt');
  Append(f);
  Writeln(f, '.text qo'shish');
  Close(f);      end.
```

Natijani ko'rish uchun joriy katologdan text.txt nomli faylni ochib ko'ring.

Misol-3. Joriy katalogda joylashgan text.txt nomli faylning hajmini ko'rish dasturi:

```
var f:file;
begin
    Assign(F, 'text.txt');
    Reset(F,1);
    Writeln('Fayl hajmi = ', FileSize(F), 'bayt');
    Close(F);
end.
```

Natija:

Fayl hajmi =	25 bayt
--------------	---------

Natijani tekshirish uchun joriy katologdan text.txt nomli faylning hajmini ko'ring.

Misol-4. Kompyuterda fayl bor- yo'qligini aniqlovchi dasturi:

```
uses crt;
var F: file of Byte;
fayl:string;
key:char;
begin
clrscr;
repeat
write('fayl manzilini kirit:');
readln(fayl);
Assign(F,fayl);;
{$I-}
Reset(F);
{$I+}
if iore result=0 then
begin
textcolor(10);
Writeln(fayl,' nomli fayl mavjud.');
end
else
begin
textcolor(12);
Writeln(fayl,'nomli fayl topilmadi.');
end;
textcolor(14);
write('ENTER bos....');
Readln;
textcolor(15);
Write('fayl qidirishni davom etasizmi?
(h/y):');
Readln(key);
Until (key='y') or (key='Y');
end.
```

Dasturga izoh: dasturda fayl manzilini 3 xil kiritish mumkin:

1.	Text.txt	Joriy katalogdan qidirish
2.	C:\text.txt	Manzilli qidirish
3.	\text.txt	Kompyuter bo'yicha qidirish

	Komyuter ekranida	Foydalanuvch kiritadi.
1 – qo'llash	Fayl manzilini kirit: Text.txt nomli fayl mavjud.	Text.txt
2 – qo'llash	Fayl manzilini kirit: C:\Text.txt nomli fayl topilmadi.	C:\Text.txt
3 – qo'llash	Fayl manzilini kirit: \Text.txt nomli fayl mavjud.	\Text.txt
4 – qo'llash	Fayl manzilini kirit: C:\scandisk.exe nomli fayl topilmadi.	C:\scandisk.exe
5 – qo'llash	Fayl manzilini kirit: \sacndisk.exe nomli fayl mavjud.	\sacndisk.exe

Topshiriqlar:

- ‘Text.txt’ nomli faylga ‘Men birinchi marta faylga murojaat qildim’ matnni yozuvchi dastur tuzing;
- ‘text.txt’ fayliga ma’lumot kiriting. ‘Text.txt’ fayl hajmini qaytaruvchi dastur tuzing.
- ‘Text.txt’ nomli fayl davomiga ‘Men ikkinchi marta faylga murojaat qildim’ matnni qo’shib yozuvchi dastur tuzing;
- ‘Text.txt’ nomli fayldagi belgilar sonini aniqlovchi dastur tuzing.
- ‘Text.txt’ nomli fayl boshiga ‘boshlanish...’ so’zini qo’shuvchi dastur tuzing..
- ‘Text.txt’ nomli fayl oxiriga ‘... tugadi.’ so’zini qo’shuvchi dastur tuzing..
- ‘one.pas’ nomli faylga ‘begin’ matnni yozuvchi dastur tuzing;
- ‘one.pas’ fayliga ma’lumot kiriting. ‘one.pas’ fayl hajmini qaytaruvchi dastur tuzing.
- ‘one.pas’ nomli fayl davomiga ‘end.’ matnni qo’shib yozuvchi dastur tuzing;
- ‘one.pas’ nomli fayldagi belgilar sonini aniqlovchi dastur tuzing.

Topshiriqni bajarish namunasi:

‘Text_one.txt’ nomli fayldagi hajmini anqlovchi dastur tuzing.

```
var
f:file;
begin
assign(f,'q.txt');
reset(f);
writeln(filesize(f), ' bayt');
end.
```

1-Laboratoriya ishi.
Paskal tilida matematik ifoda va o'zgaruvchilarni tavsiflash.
(2 soat)

Maqsad:

O'zgaruvchilarni tavsiflash va matematik ifodalarni Paskal tilida ifodalashni o'rganish va berilgan oddiy operatorlarning o'zbek tilidagi ma'nosi bilish, qo'llash va malaka hosil qilish

Nazariy material(sanab o'tiladi):

1. Matematik ifodani paskal tilida ifodalash.
2. O'zgaruvchilar tipini aniqlash.
3. Paskal operatorlarining ma'mosini bilish.

Laboratoriya ishi uchun topshiriqlar:

Variantda ko'rsatilgan ma'lumotlar orqali quyidagi uch topshiriqni bajaring.

1-topshiriq: Matematik ifodani Paskal tilida yozing.

$$(e^{g(x)} - \ln(x) + a^b - f(x))^2 \cdot \sqrt[3]{x + a - f(x)} \cdot \left(\frac{x + g(x)^2}{x + f(x)^2} \right)$$

2-topshiriq: a, b, c o'zgaruvchilarning tipini aniqlang.

3-topshiriq: Berilgan oddiy operatorlarning o'zbek tilidagi ma'nosi ayting.

	1 – topshiriq		2 – topshiriq			3 – topshiriq
	f(x)	g(x)	a	b	c	
3.	$\sqrt[6]{x + \sin(x * \pi)}$	$\log_6(x)$	False	$\cos(\pi)$	$12 \bullet 8.0$ 1	End
4.	x^2	$\ln(x)$	$\ln(25)$	25	23•14	Integer
5.	a^x	$64x$	45.5–2	56+8	$\exp(2)$	Read
6.	$\sqrt[3]{x}$	$x - 9$	9/5			Go
7.	x	$x + x^2$	23.–0.2			Then
8.	$2x$	$\sqrt{x^3}$	85•5			Add
9.	$6x^2$	$x - x^6$	56•0.8			and
10.	$x+a$	$(x+6)^2$	$\cos(2\pi)$			label
11.	$\sqrt[x]{a}$	$\frac{a}{x}$	250			End
19.	$6x$	$x - a$	5.6+8			Begin
11.	x^a	$\log_a(x)$	$\sin(12) \bullet$ 8.01			Real
12.	$\ln(x)$	x^4	23•1.4			Write
13.	$64x$	x^2	$\exp(2.2)$)			For
14.	$x - 9$	a^x	False			To
15.	$x + x^2$	$\sqrt[3]{x}$	$\ln(25)$			Else
16.	$\sqrt{x^3}$	x	True			Or
17.	$x - x^6$	$2x$	90/9			End
18.	$(x+6)^2$	$6x^2$	23•0.2			Integer

19.	$\frac{a}{x}$	$x+a$	85/5			Read
20.	$x-a$	$\sqrt[3]{a}$	False			Go
21.	$\ln(x)$	$6x$	25			Then
22.	$\sqrt[3]{a}$	x^a	45.5•2			Add
23.	$6x$	$(x+6)^2$	9-5			and
24.	x^a	$\frac{a}{x}$	2•3-0.2			label
25.	$\ln(x)$	$x-a$	8/5•5			End
26.	$64x$	$\ln(x)$	5-6•0.8			Begin
27.	$x-9$	$\log_a(x)$	$\sin(\pi)$			Real
28.	$x+x^2$	x^4	20.5•1			Write
29.	$\sqrt{x^3}$	x^2	56+8!			For
30.	$\sqrt[3]{a}$	$(a+b)^2$	12!•8.01			To

Laboratoriyanı bajarish uchun namuna:

	1 – topshiriq		2 – topshiriq			3 – topshiriq
	f(x)	g(x)	a	b	c	
	x	x	False	$\cos(\pi)$	12•8.0 1	End

1– topshiriq:

$$(e^{g(x)} - \ln(x) + a^b - f(x))^2 \cdot \sqrt[3]{x+a-f(x)} \cdot \left(\frac{x+g(x)^2}{x+f(x)^2} \right) \text{da } f(x) \text{ va } g(x) \text{larni o'rniga } f(x)=x, \\ g(x)=x \text{ lar o'yib bajariladi.}$$

Paskal tilida ifodasi:

Sqr(Exp(x)-ln(x)+exp(b•ln(a))-sqr(x)) •exp(1/3•sqrt(a))

2– topshiriq:

a=false; a ning tipi boolean;

b:=cos(x); b ning tipi real;

c:=12•8.01; c ning tipi real;

3– topshiriq:

End operatorining o'zbek tilidagi ma'nosi "tamom" degan ma'noni bildiradi.

2-Laboratoriya ishi
Asosiy, maxsus va elementar funksiyalar.
(2 soat)

Maqsad:

Paskal tilining asosiy operatorlarini, chiziqli dasturlar tuzishni o'rganish, paskal muhitidan foydalana olish va ushubu amallarni bajarish bo'yicha ko'nikma hosil qilish.

Nazariy material(sanab o'tiladi):

1. Paskal muhitida ishlash.
2. Chiziqli algoritm.
3. O'zgaruvchining tipini e'lon qilishni.
4. Paskalda tiplar.
5. Asosiy operatorlarni.
6. Maxsus funksiyalar
7. Elementar funksiyalar.

Laboratoriya uchun variantlar:

Variantda ko'rsatilganlar bo'yicha bajariladi.

- 1- Topshiriq. O'zgaruvchilar tipi va qiymatini aniqlang.
- 2- Topshiriq. Berilgan ifodani n xona aniqlikda hisoblovchi paskal tilida dastur tuzilsin.
- 3- Topshiriq. Berilgan ifodani umumiy holda hisoblovchi dastur 3 xona aniqlikda aniqlaydigan qilib tuzilsin.

	O'zgaruvchilar tipi va qiymatini aniqlang	Ifoda va berilganlar	n xona aniqlikda
